

## XALQARO AXBOROT BAZALARI BILAN ISHLASH

(magistratura mutaxassisliklari uchun, o'quv qo'llanma)





## Xalqaro axborot bazalari bilan ishlash (Working with international databases)

### KIRISH

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy ta'lim muassasalarining barcha magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan «Xalqaro axborot bazalari bilan ishlash» fani bo'yicha tahsil olayotgan magistratura va doktaranrlar va ilmiy tadqiqot ishini olib borayotganlar uchun mo'ljallangan.

«Xalqaro axborot bazalari bilan ishlash» fanini o'qitishdan maqsad - har bir mutaxassis o'z kasbiy sohasida qo'llashi va ilmiy maqolalarini lozim bo'lgan xalqaro ilmiy Scopus bazasidagi jurnallarning bazalaridan foydalanish imkoniyatlari va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.


O'quv qo'llanma xalqaro axborot bazalari bilan ishlash fani bo'yicha quyidagi bilimlar va ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi:

- Scopus bibliografik va referativ ma'lumotlar bazasi va ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalarga sitata qilishni amalga oshirish uchun uskuna imkoniyatlari, ma'lumotlar bazasiga to'liq bog'lanish (foydalanish) web-interfeys orqali ro'yxatdan o'tish, web-sahifalar va patent ma'lumotlar bazasidan qidiruvni amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

2014 yilda doktor Yu. Garfild (Eugene Garfil) tomonidan yaratilgan dunyodagi birinchi nashr Science Citation Index - SCl (Указателя ситированое литературы - adabiyotlarga iqtiboslik ko'rsatkichlari)ga 50 yil bo'ldi. Uning regulyar tarzda chop etilishi Institute for Scientific Information - ISI (Институт научной информации SSHA - AQSH ilmiy axborot instituti)da 1964 yildan boshlangan. Bu nashrning bibliografik massivlari taxlili asosida yangi ilmiy soha (fan) paydo bo'ldi - naukometriya (yoki ko'pincha bibliometriya deb sharxlanadi).

XX asrning 40 yillari o'rtalarida ilmiy tadqiqotlar va jamoalar hajmining axborot tanqisligi muammosi vujudga keldi. Olimlar ulmiyning kelishi bilan borliq rolini (qaysiki yangi bilimni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan) muvaffaqiyatli bajarishi uchun ungacha nima ma'lumu, nima poma'lum ekanligini albatta bilishi kerak edi. Atoqli amerika olimi va fan administratori doktor Vannevar Bush (Vannevar Bush) o'zining Science-Pe Endless Frontier («Predel nauki - beskonechnost») nomli kitobida olimlarni etarlicha keng bilimlar tezaurusini (bagaj) qilishga va shu tarzda insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlarini kengaytirishga chaqirdi.

Sotsiologlarning aytishicha xavolalar - bu o'ziga xos valyuta bo'lib, qaysiki olimlar o'zining hozirgi yoki o'tmishdagi faoliyat yuritgan olimlarga «to'lanadigan» xazina hisoblanadi.



Xalqaro axborot bazalari bilan ishlash (Working with international databases jarayonida e'tibor berish ma'nosida relevant manbalarga (maqolalar, kitoblar, belgilar, obzorlar va boshqalar) o'zining ilmiy ishlarining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida yoki snoskalar orqali iqtiboslik beradilar. Shu tarzda nashr-bu o'ziga xos yo'l bo'lib tadqiqotchi o'zining faoliyatidagi, uning ilmiy maqolalari va tashqi ilmiy manbalari o'zida qoldirgan izlar hisoblanadi. Kimgadir iqtiboslik qilish - bu avvalgi yozgan yoki o'tmishdagi olimlar ishiga o'z ishingizda e'tibor ko'rsatish, ya'ni iqtiboslik keltirish bu insonning intellektual qarashlari xisoblanadi. Nashrlarga iqtiboslik keltirish sabablari:

- xissasini tan olish;
- shaxsiy ishini yoki boshqalar ishini firlash;
- avvalgi ishlarni tanqid qilish;
- ushbu mavzuga oid qo'shimcha adabiyotlarni ko'rsatish;
- avvagi ishlarni inkor qilish, tan olmaslik;
- ma'lumotlarni tasdiqlash;
- hurmat keltirish.

Iqtiboslik xaqida gapirganda, ikkita tushunchani farqlab olish kerak: «citation» va «references». Bu ikkita inglizcha so'zlar bir-biriga sinonimlar hisoblanadi. Biz «citation» so'zini qachonki maqolaga iqtiboslik xaqida gapirganda qo'llaymiz, «references» so'zini esa maqolada keltirilgan adabiyotlar haqida gapirganda qo'laymiz. An'anaviy qidirishda olimlar adabiyotlarni ko'rib, avvalgi olimlar ishlariga xavolalar bergan xolda o'lchovi o'rganishdan teskari TI esa iqtiboslik metodini taklif qiladi. Tadqiqotchi o'zidan oldin yozilgan ishlar muallifining familiyasini bilishi va bibliografik xavolachi ko'rsatkichiga murojaat qilgan xolda shu olimning barcha iqtibosli ishlaridan mavjud barcha zamonaviy ishlarni topishi mumkin.

#### **Bibliografiya tushunchasi, uning kelib chiqish tarixi**

«Bibliografiya» so'zi birinchi marta qadimgi Gretsiyada qo'llanilgan. So'zma-so'z tarjima qilinganda biblion - „kitob“, grapho- „yozaman“ degan ma'noni anglatadi. Kitob nashr etish ishi boshlangunga qadar bu tushuncha kitobni yozish, ko'chirib yozish ma'nosida qo'llanilgan. U vaqtlarda kitobni yozish va ko'chirib yozish qo'l mehnati bilan amalga oshirilgan. Bu ishni bajarganlarni bibliograflar deb atashgan. O'sha paytda bibliograflardan alohida mukammal bilim talab etilmasdan, faqat yozishni va o'qishni bilish talab qilingan bo'lsa-da, bu ish juda yuqori malakali va istiqbolli ish hisoblangan. Qog'oz kashf bo'lgunga qadar O'rtayer dengizi mamlakatlarida papirus, Mesopotamiyada loy plastinkalardan, Xitoyda ipakdan, Hindistonda palma daraxti barglaridan foydalangan holda axborotning qo'lyozma shakllarini tarqatishgan.

Ikkinchi darajali axborotning qadimgi shakllari yozma madaniyat tarixi bilan bog'liq bo'lib, Vizantiyaning bibliografik yodgorliklari, Shumerning bibliografik

matnlari, amerikalik tadqiqotchi S. N. Kramerning va boshqa Assuriya madaniyati namoyandalarining asarlarida tasdiqlangan. Eramizdan oldingi uchinchi ming yillikda yer yuzidagi birinchi kutubxonalar Qadimgi Shumerda paydo bo'lgan. Shumer xonligidagi kutubxona xodimlari loy-tablichkalardagi klin yozuvlarini katta yopiq qutilarda va savatlarda saqlaganlar. Nishopur saroyida Lagash arxeologlari tomonidan minglab (20000 dan ko'p) ana shunday loy-tablichkalar topilgan. Ana shunday katta fondga ega bo'lgan kutubxonalar jamg'armasidan o'ziga kerakli tablichkani topishning o'zi bo'lmagan.

Qadimgi Shumer kutubxonachilari bunday holatdan chiqa bilganlar. Ular har bir qutini yoki savatni alohida o'ziga xos va undagi materiallar mazmuniga muvofiq nomlar bilan ataganlar. Bunday tartibga solish kutubxonachilik ishidagi birinchi kataloglardir. Bu foydalanuvchiga kutubxonada mavjud hujjatni qidirishga va oson topishga yordam bergan. Shunday qilib, kutubxona xodimi birinchi bo'lib, kutubxona katalogi ko'rinishida o'z kutubxonasida maxsus tablichka ko'rsatkichlarni qo'llash bilan katalog shaklidagi bibliografik axborotni kashf etishgan. Keyinchalik kataloglar bibliografik axborotning manbasi sifatida anchagina qadimgi yirik kitob saqlash muassasalariga bo'ysungan.

Qadimgi dunyoda va o'rta asrlarda Yevropada kitob bosish ishi ixtiro qilingunga qadar bibliografiya tarixi haqida to'g'ri ma'lumotlarni Rossiya davlat kutubxonasining bibliografiya bo'yicha ilmiy tadqiqot bo'limining bosh ilmiy xodimi, mashhur bibliograf va vizantiyashunos B. A. Semyonovning tadqiqotlaridan olish mumkin. Uning 1979-1982 yillarda o'tkazgan tadqiqotiga ko'ra:

1. Vizantiyada aniqlangan barcha yodgorliklarni to'la yoki qisman bibliografik apparatga ega bo'lgan qo'llanma deb hisoblash mumkin.
  2. O'rta asr grek bibliografiyasi muntazam rivojlangan bo'lib, o'sha davrdagi bibliografiya qadimgi grek va ellinistik bibliografiyaning yangi tarixiy jarayondagi davomi edi.
  3. O'sha davr bibliografiyasi uchun keyinchalik kitob bosish ishi paydo bo'lgandan keyin ham rivojlangan unifikatsiya xarakterli bo'lib qoldi.
  4. Bibliografik matnlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bibliografik yo'llanmalar (ssilkalar) mualliflarni ko'rsatishda va aniq bir asarga taalluqli masalalarni ko'rsatishda qo'llanilgan.
  5. Birinchi rus bibliografik yodgorligi 1073- yil yaratilgan yolg'on va haqiqiy kitoblarning 3 ta ro'yxati edi.
- Bibliografiyani tashkil etish-mamlakatda kutubxonachilik va axborot markazlarini tashkil etish, bibliografiya xizmati tizimini yaratish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, jamiyatning axborotga bo'lgan talabini to'la qondirish imkonini yaratish uchun xizmat qiladi.

### Bibliografiyaning ahamiyati

Har bir davrda jamiyat taraqqiyoti madaniyatsiz, ma'naviyatsiz amalga oshmaydi, doimo insoniyat ma'naviy bilimga, dunyoni bilishga, ilm olishga, o'zligini anglash uchun hayotni tushunishga ehtiyoj sezadi. Tevarak-atrof, voqea va hodisalar, ularning mohiyati, mazmuni, maqsadi, ijtimoiy-siyosiy voqealar, ularning asl mazmuni, maqsadi, foyda va zarari haqida bilim beruvchi kishilarni ezgulikka, yaxshilikka chaqiruvchi, ruhiy ozuqa beruvchi adabiyotlar haqida tezkorlik bilan, maqsadga mos holda ma'lumot beruvchi ikkinchi darajali hujjatlar- bibliografik mahsulotlardir. Turli xil yo'nalishda tuzilgan bibliografiyalarning ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:


1. Bibliografiya undan oldingi davrda yaratilgan madaniy boyliklarimiz. kitobatchilik, nashriyotchilik ishi tarixi haqida, rivoji haqida ma'lumot beradi.
2. Adabiyotlarning mazmuni, maqsadi, undagi asosiy masalalar, muammolar bilan tanishtiradi.
3. Kitobxon uchun yangi ma'lumot beradi.
4. Kitobxonga o'qish uchun eng zarur adabiyotlarni tavsiya qiladi.
5. Kitobxonga adabiyot tanlashda yordam beradi.
6. Adabiyot tavsiya etadi.
7. Jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, biror-bir sohada muvaffaqiyatlarga erishishda turtki bo'ladi.
8. Shaxsiy hayotida o'zgarishlar bo'lishi uchun zamin yaratadi.
9. Kitobxonda o'qish madaniyatini, axborot bilan ishlash madaniyatini tarbiyalaydi.
10. Ilmiy-tadqiqot ishlari, tarixni o'rganish uchun muhim manba bo'lib qoladi.

## I bob. AXBOROT RESURLARINI SHAKLLANTIRISH VA QIDIRISHNING TEXNOLOGIK JIHLARI

Oliy ta'lim muassasalarini aktual ilmiy va ta'limiy axborotlar bilan ta'minlash jamiyat rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari asrida mazkur masalani yechishning asosiy samarali vositasi bu - yagona xalqaro standartlar asosida shakllantirilgan raqamli formatdagi axborot resurslari fondiga ega avtomatlashtirilgan axborot resurslari tarmog'ida rivojlangan axborot infratuzilmasini yaratish hamda o'z resurslarini jamoaviy foydalanishga taqdim etish hisoblanadi.

Bunda jahon ilmiy-ta'limiy resurslaridan samarali foydalanish va ularni to'plash muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot infratuzilmasini rivojlantirishdagi jahon tendensiyalari, jumladan, ilmiy, amaliy tadqiqotlar yagona klassifikatsiya tizimlarini, ma'lumotni kodlashtirish, xalqaro kommunikativ formatlar asosida ularni formatlash, uzatishga moyil bo'ladi. Axborot muhitini shakllantirishdagi 90%dan ortiq xarajatlar mazmun-mohiyatiga aloqador hisoblanadi. Axborot manbalari va ma'lumotlar tuzilmalarining turli tumanligi tizimlashtirishda yagona ko'rinishda taqdim etilishini talab qiladi.

Axborot-kommunikatsiyalari uchun kutubxonalarning MARC formatlari, DUBLIN CORE formatlar va axborot kommunikatsiyalarning xalqaro standartlari bugungi kunda nafaqat an'anaviy kutubxona ma'lumotlari, balki ilmiy-texnik va boshqa turdagi axborotlar orasida faol axborot almashuvining asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu birlashuv ma'lumotlarini taqdim etish jahon axborot makonini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bunday muhitning axborot asosi elektron kutubxonalar va ularning tarmoqlararo aloqalari hisoblanib, mazmuniy asosi esa nafaqat milliy axborot resurslari, balki, jahon ilmiy ta'limiy ma'lumot bazalari hisoblanadi. Axborot resurslarining bir nechta turlari mavjud (1.1-rasm).



1.1-ras. Axborot resurslari.

**Jahon axborot resurslari (JAR)** tushunchasi mohiyatini anglash uchun mavjud qonun va standartlar asosida asosiy tushunchalar mazmuniga aniqlik kiritish zarur. «Axborot resurslari», «axborot-kutubxona resurslari», «axborot ilmiy-ta'limiy resurslar» kabi tushunchalarni farqlash lozim.

Axborot resurslari matn ko'rinishidagi materiallar, ovoqli yozuvlar va tasvirlar. Bu umumiy tushuncha bo'lib, resurs axborotdan yaratiladi, lekin uning aniq shaklini anglatmaydi. Bu shunchaki tartibsiz ko'rinishdagi, turli xil formatli hujjatlarning to'plami, ya'ni ma'lumotlar massivi bo'lishi mumkin.

**Axborot-kutubxona resursi** moddiy ob'yektda matn, ovoqli yozuv yoki ta'rif tarzida qayd etilgan hamda, identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot. Bu yerda «identifikatsiyalash uchun rekvizitlar» tushunchasi muhim o'rin tutadi, chunki, mazkur ko'rsatkichlar asosida hujjatni topish (identifikatsiyalash) mumkin. Rekvizitlar qat'iy qoidalar kutubxonachilik standartlari asosida qo'yiladi. Bu an'anaviy hamda elektron, virtual kutubxonalaridagi ma'lumotlar qidiruv jarayonini shakllantirishda muhim jihattir.

**Ilmiy-ta'limiy axborot resurslari** – litsenziyalangan va taqrizdan o'tgan ilmiy ta'limiy axborotlar (jurnallar, maqola, kitoblar, multimedia va boshqalar). Ilmiy ta'limiy axborot resurslari muhim qiymatga ega bo'lgan intellektual manbadir. Odatda har bir hujjat ma'lumotlar bazasi, jurnal, tegishli to'plamlarga kiritilishidan avval etakchi olimlar, mutaxassislar tomonidan saralashdan o'tadi. Bu hujjat tizimlashtiriladi, kataloglashtiriladi va operativ foydalanishni ta'minlash maqsadida ilmiy-ta'limiy axborotlarning ma'lumot bazalariga joylashtiriladi. Asosiy foydalanuvchilarni ilmiy xodimlar, o'qituvchilar, magistrlar va talabalar tashkil etadi.

**Jahon axborot resurslari** – dunyoning etakchi nashriyotlarining axborot resurslaridir. Bu axborot qidiruv tizimiga ega jamiyat tomonidan tan olingan tizimlashtirilgan va tuzilmalashgan ilmiy-ta'limiy resurslarning ma'lumot bazalaridir. Jahon axborot resurslari ro'yxatiga yuqori impakt faktorli jurnal, eng ko'p iqtibos keltirilgan ilmiy monografiyalar, darsliklar, maqolalar va boshqa resurslar kiradi.

**Erkin foydalanish** (Open Access) – kitobxonlarning Internet orqali bepul foydalanish, o'qish, yuklab olish, nusxa ko'chirish, tarqatish va chop etish, qidirish indekslash, ma'lumot sifatida uzatish yoki qonun doirasida, boshqa maqsadlarda moliyaviy va texnik to'siqlarsiz muallifga iqtibos keltirgan holda foydalanishdir. «Erkin foydalanish»dagi jurnalni bepul ko'rish mumkin. Ular muallif gonorarlarini to'lash uchun, jurnalni o'z vazifalarini bajarish uchun qo'llash maqsadida narx ham o'rnatishlari mumkin, lekin erkin foydalanishda bo'lib, kitobxonlar, foydalanuvchilar uchun ochiqdir.

Foydalanish uchun biror-bir to'lov talab etadigan jurnallarni ba'zan «gibrid foydalanishli» jurnallar deb ham ataydilar.

**Ma'lumot bazalari** (data base) – tasvirlash, saqlashning alohida qoidalar asosida tashkil etilgan amaliy dasturlar asosida tuzilgan ma'lumotlar yig'indisidir. Ma'lumot bazalari qoidalar asosida tashkil qilingan, umumiy tavsif, saqlash va o'zgartirish tamoyillari nazarda tutilgan ma'lumotlar soha bo'yicha (ilmiy-ta'limiy, iqtisod) ma'lumotlar majmui.

Bizning holatda bu ilmiy jurnallar, kitoblar, hisobot va shu kabilarning ma'lumot bazalaridir. Ma'lumotlar bazasiga murojaat qilish ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi orqali amalga oshiriladi.

**Plagiat** (Plagiarism) – o'zga muallif asarini atayin havolalarsiz, muallifga iqtiboslikni ko'rsatmasdan shaxsiy asar sifatida ko'rsatishga urinish. Plagiat – bu nusxa ko'chirishning bir turi bo'lib, lekin albatta mualliflik huquqining buzilishi hisoblanadi.

Anti-plagiat hujjatning umumiy o'ziga xosligi darajasi haqida ma'lumotni foizda beradi. Internetda o'xshash yoki bir xil matnli parchalarni topganda, anti-plagiat dasturi ushbu qismlarni umumiy tahlildan so'ng tegishli rang bilan belgilangan plagiat manbalariga havolalarni ko'rsatadigan rangli marker bilan belgilaydi.

Yildan yilga tobora ko'payib borayotgan oliy o'quv yurtlari laboratoriya, mustaqil, kurs ishlari va diplom ishlari matnining o'ziga xosligi darajasiga talablar ko'paymoqda. Katta pushaymonlik bilan nafaqat talabalar, balki ko'plab professor-o'qituvchilar xam ishning o'ziga xos darajasi nimani anglatishini tushunmaydilar.

Anti-plagiat nima va u nima uchun kerak?

Plagiat - bu ko'chirilgan kontent. Bizning holatda, bu o'zgarishsiz boshqa saytda nashr etilgan allaqachon mavjud material. Bunday o'g'irlangan maqolalar avtomatik ravishda qidiruv tizimlari uchun foydasizlar ro'yxatiga kiritiladi va boshqa manbalarning mualliflik huquqlarini buzadi (matn o'g'irlanganlar).

Anti-plagiat qanday ishlaydi? Odatda bu veb-xizmat kontent miqdorini foiz sifatida matnini yuklaydi va natijada u noyob va qarzga olingan kontent maqolalaridan faqat nusxa oladi. Bunday tizimlar mualliflar boshqa odamlarning maqolalaridan faqat nusxa ko'chirish emas, balki noyob asarlar yaratish uchun kerak. Bu sayt targ'ibotini tezlashtirish, auditoriyani ko'paytirish, qidiruv tizimining sanktsiyalari va asl matnlarning mualliflik huquqi egalari bilan bog'liq muammolardan qochishning yagona yo'li.

Bunga javobni quyidagi milliy dasturni ishlatish orqali olish mumkin (1.2-rasm)..



Tizimga kirish

Yaxshi xizmat uchun

Yaxshi

Kirish

1.2-rasm. Anti-plagiat dasturi.

Buning uchun dasturda ro'yxatdan o'tishingiz kerak bo'ladi. Nima uchun kontentning o'ziga xosligi juda muhim? Gap Yandex va Google kabi qidiruv tizimlarida. Shuningdek, ular matnlarni plagiat uchun tekshiradilar. Va agar shartli Yandex sizning maqolangizda ilgari

tarmoqda mavjud bo'lgan matnning 40% dan ko'prog'ini bildirsa, u avtomatik ravish manbani qidiruv natijalarining orqa tomoniga yuboradi. Nima uchun Yandex qidiruv natijalarining yuqori qismida bir nechta bir xil materiallarni joylashtirishi kerak ayniqsa ulardan biri o'g'irlanganda.

Qidiruv tizimlari uni haqiqatan ham yangi deb bilishlari va ushbu nashr bilan resursga "jarima" bermasliklari uchun noyob kontentning 80-90% chegarasini eng o'tish kerak.

Bu o'ziga xoslik statistikdir, ammo semantik o'ziga xoslik ham mavjud. Bu mavzuning yangiligiga ishora qiladi. Ilmiy sohada ko'proq tarqalgan. Talabalar professor-o'qituvchilar kurs ishi yoki doktorlik dissertatsiyasi uchun tanlangan mavzuning dolzarbligi va yangiligini asoslashga harakat qiladilar. Internetda bunday hojat yo'q, chunki yaxshi yozilgan material qandaydir tarzda tomoshabinlarni saytga olib boradi va semantik o'ziga xoslik muallifning yoki tahririyatning shaxsiy fikri bilan biroz oshirilishi mumkin.

Antiplagiat dasturlarining bir nechta turi mavjud. Shulardan biri antiplagiat.ru. Ro'yxatga olingan xizmatlarning eng tejamkori, odatda ilmiy faoliyat qo'llaniladi. Unda o'qituvchilar va talabalar tezis va dissertatsiyalarni tekshiradilar. Tekshirish uchun matnlar bazasi nima ekanligi noma'lum, ammo Antiplagiat xato ta'sirchan (boshqa xizmatlar bilan taqqoslaganda). Text.ru saytida 60% ball to'plagan harflar to'plami Antiplagiatda 90% dan osongina oshib ketishi mumkin, shuning uchun siz u orqali tijorat matnlarini tekshirmasligingiz kerak.

Advego Antiplagiatus - bu har qanday materialning o'ziga xosligini sinchkovlik bilan tekshiradigan noyob dastur. Siz materialni rasmiy veb-saytda tekshirishingiz mumkin (belgilar soni cheklangan bo'ladi) yoki maxsus dasturni yuklab olishingiz (bu xil saytdan), uni kompyuteringizga o'rnatishingiz va ishga tushirishingiz mumkin.

O'z faoliyatida (ilmiy maqola, kitob, hisobot, ma'ruzalar yozishda) axborot resurslaridan foydalanish jarayonida mualliflik huquqlariga qat'iy rioya qilish lozim. Hujjatni yaratishda foydalanilgan manbalarga albatta havolalar keltirish lozim. Plagiarizmni tushunish yangi axborot resurslarini, ayniqsa ilmiy axborot resurslarini yaratishda muhim hisoblanadi. Mualliflik huquqlari har bir mamlakatda mualliflik va turdosh huquqlari to'g'risidagi tegishli qonunlar bilan muhofaza qilinadi.

Ilmiy-axborot resurslari manbalarini o'rganishda turli axborot etkazuvchilarning mavjudligini bilish zarur:

**nashriyot** tashkilot (davlat, jamoat, kooperativ yoki xususiy) adabiyot, san'at, musiqa yoki fan sohasida faoliyat yuritib mahsulotlar yaratishi, ko'paytirishi, tarqatishi mumkin bo'lgan media-kompaniya.

**Nashr** (mahsulot) bosma hamda elektron (raqamli) ko'rinishda bo'lishi mumkin. Nashriyot mahsulotini tarqatish savdo kanallari, Internet orqali hamda

bevosita nashr tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Tarqatish nashriyotning maqsadlari hamda biznes modeli asosida pullik yoki bepul bo'lishi mumkin.

**Agregatorlar** - o'zi nashrlik qilmagan holda electron resurslarni yig'uvchi kompaniyalar hisoblanib, iste'molchilarni ularning so'rovlarini, obunalari asosida resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlab, kerakli axborotlar bilan ta'minlash maqsadida marketing faoliyatini olib boradi. Agregatorlar nashriyotlar, manba yaratuvchilar bilan ularning resurslaridan foydalanish bo'yicha shartnomalar imzolaydilar.

**Analitik ma'lumot bazalarini yaratuvchi kompaniyalar** - bunday tashkilotlar resurslarning qo'llanilishi, u yoki bu manbaalarga murojatlar bo'yicha, mualliflarga murojaatlar, ularning iqtibosligi va boshqa shu kabi parametrlar bo'yicha tahlillar olib boradi. Bunday analitik vositalar va ma'lumot bazalari bilim manbalari va axborot yaratuvchilarini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Analitik ma'lumot bazalari va ular bilan ishlash borasida instrument yaratuvchilardan eng taniqli kompaniyalar ular Clarivate Analytics, Thomson Reuters va Scopus kabi kompaniyalardir.


Hozirgi kunda axborot resurslari, axborotlashtirilgan jamiyatning asosi hisoblanadi. Jamiyat axborotlashtirish yo'nalishida ilgari odimlashi bilan, uning axborot resurslari ham rivojlanib, takomillashib boradi. Axborot resurslari jamiyatning milliy boyligi bo'lib jamiyatning rivojlanish salohiyati va mavqei belgilab beradi. Axborot resurslari qanchalik aniq va to'la ravishda ro'yxatga olinsa, ulardan foydalanish shunchalik samarali bo'ladi.

Dunyodagi boshqa mamlakatlar singari O'zbekistonda ham axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, o'tgan vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 22 noyabrda "Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi 256-sonli, 2006 yil 2 fevraldagi "Davlat axborot resurslari hamda ularni shakllantirish, ulardan foydalanish va ularni qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 27-sonli hamda 2007 yil 16 fevraldagi "Davlat axborot resurslari hamda ularni shakllantirish, ulardan foydalanish va ularni qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 34-sonli qarorlari qabul qilindi.

### 1.1. Axborot resurslarining asosiy tushunchalari

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risidagi" qonunida axborot resursi tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. Axborot resursi-axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi. Davlat axborot resurslari (DAR) davlat organlarining axborot resurslaridan, yuridik va jismoniy shaxslarning davlat byudjeti mablag'lari hisobidan yaratilgan axborot

resurslaridan, yuridik va jismoniy shaxslarning davlat sirlari hamda maxfiy axborot o'z ichiga olgan axborot resurslaridan hamda yuridik va jismoniy shaxslar belgilagan tartibda taqdim etiladigan hujjatlashtirilgan axborotidan shakllanadi (rasm).



1.3-rasm. Davlat axborot resurslari va ularning shakllanish manbalari.

DAR pasporti davlat axborot resurslari reyestriga kiritish maqsadida to'ldirilgan tashkilot, DAR va uning boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro ishlatilish imkoniyatlari haqida ma'lumotlar beriladi.


DAR foydalanilishiga ko'ra bazaviy va maxsus DARga bo'linadi. Barcha davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ularga berilgan vakolatlar doirasida umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan DAR bazaviy DAR hisoblanadi. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning tor kasbiy, o'ziga xos vazifalarini bajarish uchun mo'ljallangan, foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslari esa maxsus DAR hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida qayd etilgan qarorlariga asosan UZINFOCOM markazi tomonidan davlat organlarining DARni o'z ichiga jamlagan ro'yxat «Davlat axborot resurslari reyestri» ([url=http://www.reestr.uz](http://www.reestr.uz)) olib borilmoqda (1.4-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 2-fevraldagi 27-sonli va 2007 yil 16-fevraldagi 34-sonli qarorlariga asosan Davlat axborot resurslari va tizimlari Reestrda, hozirgi kunda 57 ta DAR mavjud bo'lib, shulardan 52 (88%) tasi ro'yxatdan o'tkazilgan, 6 (10%) ta DAR bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilmagan.

Bundan tashqari, 1 ta DAR va 8 ta ro'yxatdan tashqari davlat organi axborot tizimi ro'yxatdan o'tkazilgan.

Davlat organlarining axborot resurslari va tizimlari restri.



1.4-rasm. Davlat axborot resurslarini qayd etish va ro'yxatga olish yagona tizimi web sayting bosh sahifasi [www.reestr.uz](http://www.reestr.uz)

Aholini axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini, tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan to'liq matnli axborotga ega bo'lishini ta'minlash respublikamizda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Fan va ta'limga oid ilg'or manbalardan foydalanishga imkoniyat yaratish orqali ilmiy markazlar, o'quv muassasalarining ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta'lim berish potensialini oshirish mumkin. Lekin, qimmatbaho axborot resurslarini shakllantirish va saqlash uchun elektron-kutubxonalarda zarur ilmiy-ta'limiy materiallarni olish va to'plashga imkon yaratuvchi maxsus texnologiyalarni rivojlantirish zarur. Bunda, respublikaning axborot industriyasini rivojlantirishda, ilmiy ma'lumot bazalarining axborot fondlariga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va yetakchi axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini birlashtirish zarur. Bugungi kunda JAR laridan faqatgina foydalanish emas, balki JAR asosida elektron-kutubxonalarni shakllantirish lozimdir. Bunday rivojlangan axborot infrastrukturasini amalga oshirish shartlari quyidagilar:

1. Yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya tarmoqlarining mavjudligi.
2. Bibliografik yozuvlarni taqdim etishning xalqaro talablari asosida elektron-kutubxonalarni shakllantirish.
3. Elektron kataloglar tashkil eta oladigan, ilmiy-ta'limiy, biznesga va h.k. oid resurslarni raqamlashtirish, to'liq ma'lumot bazalari, multimedia ma'lumot bazalarini shakllantira oladigan yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi.
4. Tarmoq va ma'lumot bazalarining vakolatli boshqaruvini tashkil etish.

Rivojlangan telekommunikatsion tarmoqlar va elektron ma'lumotlar bazalarini shakllantiruvchi dasturiy mahsulotlar konsorsium ishtirokchilari o'rtasida yozilgan tezlikdagi kanallar orqali ilmiy-ta'limiy axborotlarni almashishga imkon yaratadi. Yuqori malakali mutaxassislarining mavjudligi, ma'lumot bazalarini, axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirilgan tizimlarini ishlab chiqilishi, axborotni tashuvchi tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikning mavjudligi, kutubxonalar, ta'lim muassasalari, ilmiy markazlarning zarur ilmiy-ta'limiy axborotlar bilan ta'minlash korporativ tarmoqni rivojlantirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa kerak bo'lgan axborotlarni qidirishga ketadigan vaqtni o'nlab va yuzlab marotaba qisqartirish imkonini berib, raqobatbardosh axborot mahsulotlarini yaratishga, OTM kutubxonalar o'rtasida samarali axborot almashinuviga imkon yaratib o'tkazish materiallarini o'zlashtirish samaradiligini oshirishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi yig'ma elektron katalog yaratish, elektron darsliklarning to'liq matnli ma'lumot bazalarini yaratish, talaba, o'qituvchi, ilmiy xodimlarga masofadan xizmat ko'rsatish, elektron kutubxonalarga, respublikada yaratilgan qimmatli ma'lumot bazalariga, jumladan JARlarga kirish, ulardan foydalanish imkonini yaratadi. Korporativ tizim virtual kutubxonalarga bo'lgan birinchi qadam hisoblanib, axborot mahsulotlari orqali o'z ma'lumot materialini samarali o'zlashtirishga imkon yaratadi. Tarmoq ma'lumotlar uzatishni yuqori tezligini ta'minlash, o'rnatilgan qoidalar asosida yangi abonentlarni qo'shish mavjud axborotlar xavfsizligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Korporativ axborot tizimlari texnologiyalarini qo'llash quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: • elektron ilmiy ta'limiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash samaradorlikini oshirish (ayniqsa, viloyatlarda), ta'lim olishning interaktiv usullarini, jumladan telekonferensiya va telema'ruzalar, masofadan ta'lim berish, bilimlarni sinovda o'tkazish tizimini joriy etish;

• xalqaro standart talablariga javob beruvchi ilmiy-ta'limiy to'liq ma'lumot bazalarini shakllantirish (elektron darsliklar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, multimediyalar (o'quv, kino, multiplikatsion filmlar, musiqa asarlari va boshq.); • virtual kutubxona rejimida ilmiy-ta'limiy resurslarning ma'lumot bazalari va elektron katalogida onlayn foydalanish imkonini yaratish; • axborot-kutubxona muassasalarini OTM elektron kataloglarni yaratish bo'yicha sarf xarajatlarni qisqartirish; • ilmiy va ta'limiy moddiy resurslarni yaratish va davlat va biznes tashkilotlarini lokal elektron kataloglarini muassasalarini, hamda davlat va biznes tashkilotlarini zarur axborot bilan ta'minlash; • tarmoq ishtirokchilariga ilmiy-ta'limiy axborotlarni yaratish; • bu tizim AKMlarini o'zaro yaratishning samarali imkoniyatlarini yaratish; • hamkorlikni yaratish, turli xil tashkilotlarning kutubxona va axborot tarmoqlarini birlashtirish orqali respublikada mustahkam axborot-kutubxona infratuzilmasini yaratishga imkon yaratadi.

### Savol va topshiriqlar

1. „Bibliografiya“ so'zining ma'nosi nima?
2. Qog'oz va uning paydo bo'lishi, ahamiyati haqida to'xtal.
3. Axborot infratuzilmasi nima?
4. Bibliografiya nazariyasi nimani o'rganadi?
5. Bibliografik axborot nima?
6. Bibliografiyaning texnologiyasi nima?
7. Bibliografiyaning metodikasi nimadan iborat?
8. Bibliografiya tarixi nimani o'rgatadi?
9. Bibliografiyani tashkil etishdan maqsad nima?
10. Bibliografiyaning ahamiyati haqida gapiring.
11. Plagiat nima?
12. Antiplagiat dasturining vazifasi.

### 1.2. Ilmiy axborotlarni izlash, yig'ish va unga ishlov berish

Bugungi kunda har qanday ilmiy tadqiqot o'tkazilishi mo'ljallanayotgan yo'nalishga bag'ishlangan ilmiy-texnikaviy informatsiyalarni izlashdan boshlanadi. Ilmiy texnikaviy informatsiya manbai bo'lib quyidagi hujjatlar hisoblanadi:

- kitoblar (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiya, broshyuralar);
- davriy matbuot (jurnallar, byulletenlar, institutlarning ishlari, ilmiy to'plamlar);
- me'yoriy hujjatlar (standartlar, texnikaviy shartlar, yo'riqnomalar, me'yoriy jadvallar, muvaqqat ko'rsatmalar va b.);
- katalog va preyskurantlar;
- patent hujjatlari;
- ilmiy tadqiqotlar va tajribaviy konstruktorlik ishlari haqidagi hisobotlar;
- informatsiyaviy nashrlar (ITI to'plamlari, analitik narxlar, informatsiyaviy varaqalar, ekspress informatsiya, ko'rgazmalarning prospektlari va b.);
- xorijiy ilmiy-texnikaviy adabiyotlar tarjima va asl nusxalari;
- dissertatsiyalar, avtoreferatlar;
- ilmiy-texnikaviy konferensiyalar va ishlab chiqarish yig'ilishlarining ilmiy-texnikaviy materiallari;
- ikkilamchi hujjatlar (referativ sharxlar, bibliografik katalog, referativ jurnallar va b.)

### Ilmiy axborot tushunchasi

Ob'ektni kuzatishdan olingan birlamchi mushohadali axborot matnda qilingandan keyin ikkilamchi yozilgan axborotga aylanadi. Keyinchalik bu axb tahlil qilinadi, tadqiqot jarayonida qayta ishlab chiqilgan, mavjud nazariy tasavv doirasida umumlashtiriladi. Olingan yangi natija kompyuter saytlariga o'tkazil ilmiy nashrlarda chop etiladi. Axborot tizimiga o'tkazilgan tadqiqot natijalari il axborotga aylanadi.

Faoliyatni qaysi turi bo'lsin, barchasi axborot qabul qilish va qayta ishlas asoslangan. Insoniyat, u bunyod etgan ijtimoiy tuzilmalar axborot manbalari oqimlari bilan o'ralgan. Demak, biz o'zimiz yaratgan axborot olamida yashaymiz, olamni biosfera, neosfera va texnosferadan farq qilish uchun «informosfera» ataydilar.

**Axborotni o'zi nima?** Kibernetika fani asoschisi N. Viner axborot materiya emas, energiya ham emas, axborot bu axborotdir, degan edi. Bu ta'rif axborotni o'z xos xodisa ekanligiga ishora qiladi xolos, lekin bu o'ziga xoslik nimadan ibo bo'lishini ko'rsatmaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot mohiyatan o'z-o'zini tashkil qiluv tizimlarning (jonot, inson, jamiyat, ijtimoiy tuzilmalar va boshqalar) funksio xossasi, ya'ni faoliyat ko'rsatish vositasi bo'lib, shu xossa orqali tizimlarda haral o'zgarish, o'zaro ta'sir, o'z-o'zini tiklash, aloqa va muloqot qilish kabi faollik tur amalga oshiriladi.

O'z-o'zini tashkillashtiradigan tizimlar uchta fundamental asos – mo energiya va axborotdan foydalanish orqali turli funktsiya va amallarni bajaradilar.

Jamiyatda ishlab chiqariladigan axborotlar majmuasi ijtimoiy axborot, o ataladi. Ijtimoiy axborotni bir ko'rinishini ilmiy axborot tashkil qiladi.

Fan tizimida qo'lga kiritilgan yangi natijalar matnda qayd qilinib, il nashrlarda chop etiladi, aloqa kanali yoki internetga uzatilgandan keyin ilmiy axbo aylanadi.

Axborot bilishni zaminida turadi. Axborotda bilim, aniqrog'i uning mazmu ifodalanadi, aloqa kanalida bir sub'ektdan boshqasiga yetkaziladi. Shunday qilib, aloq kanalida bilim axborotga aylanadi. Muloqatni ikkinchi sub'ekti iste'molchi sifatid axborotni qabul qiladi, uni o'qib, anglab bilimga aylantiradi.

Ayrim adabiyotlarda «axborot» va «bilim» tushunchalari aynanlashtiriladi. Vaholanki, bilim axborot emas, u ondgagi obrazlar, tushunchalar va tasavvurlardad iborat bo'lib, nutqda, aloqa kanalida axborotni mazmuni bo'lib qoladi.

#### **Axborotni izlash va o'rganish**

Fanda ilmiy axborotni hosil qlish va iste'molchilarga uzatish ishlarini axborot texnologiyasi tizimlari bajaradi. Axborotni qog'ozli va qog'ozsiz vositalarda saqlash va uzatish tizimlari mavjud. Hozirgi vaqtda qog'ozsiz texnologiyalar (kompyuter,

internet, megafon, fleshka va boshqalar) axborotni ishlab chiqarish, izlash va uzatishda ustuvor texnologik tizimga aylanmoqda.

Axborotni geometrik progressifda ko'payib borayotgan, shu bois, axborotni joylashtirish, saqlash va izlash texnologiyalarini taraqqiy etishi sharoitida axborot bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish aqliy mehnat sohiblari uchun muhim ahamiyatni kasb etmoqda. Aytish kerakki, axborotlar okeanida kerakli ma'lumotni izlash nihoyatda murakkablashib bormoqda. Unga oid maxsus bilish yo'nalishi – informatika esa har tomonga tarmoqlanib ketayotgan texnologik bilimlar kompleksiga aylangan.

Axborotni izlash, u bilan ishlashni tashkil qilishda ba'zi-bir uslubiy qoidalarga e'tibor berish kerak. Masalan.

1. Hozirgi zamon axborot texnologiyasi tizimlarini yaxshi bilish, ular bilan ishlash uquviga ega bo'lish.
2. Ilmiy-texnik axborot tizimlari to'g'risida aniq tasavvurni hosil qilish.
3. Mutaxassislik bo'yicha axborot manbalirini mumkin qadar to'liq bilish.
4. Axborotni izlashning eng oqilona yo'lini tanlash, uni qayta ishlash usuli va vositalarni o'ylab ko'rish, tayyorlash.
5. Yordamchi bibliografik va axborot materiallaridan foydalanish uquviga ega bo'lish.

Bugungi kunda tadqiqotchi ixtiyorida turli daraja va miqyosga ega bo'lgan axborot texnologiyasi tizimlari va manbalari mavjud. Asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Ilmiy axborotni ishlab chiqarish va saqlash tizimi-ilmiy-texnik axborot markazlari, ixtisoslashgan axborot resursi muassasalari. Bularda ilmiy yutuqlar, yangi natijalar, ixtirolar, ilmiy va texnologik loyihalar axborot shakliga keltiriladi va saqlanadi.


2. Axborot mahsuloti-chop etilgan, resurs markazlarida to'plangan, internet saytlariga o'tkazilgan axborot majmuasi (ilmiy hisobotlar, to'plamlar, monografiyalar, loyihalar).

3. Axborot texnologiyasi tizimlari. Bu soha ilmiy axborotlarni tarqatish bo'yicha ixtisoslashgan tizim bo'lib, uning tarkibiga zamonaviy axborot va aloqa texnologiyasiga ega bo'lgan ilmiy muassasalar, axborot resurslari, nashriyot, referativ qaydnomalar va ekspress-jurnallar kiradi.

4. Ilmiy axborot kommunikatsiyasi. Turli ilmiy markazlar internet yoki maxsus aloqa kanallari orqali muntazam ilmiy aloqalar o'rnatadilar, anjuman va masofaviy ilmiy muloqot o'tkaziladi.

Axborotni hujjatli manbalari. «Ilmiy axborot manbai» deb biron – bir ma'lumot mavjud bo'lgan hujjat tushuniladi. Hajjat maqomiga ega bo'lgan manbada ilmiy va amaliy faoliyatda foydalaniladigan ma'lumotlar saqlanadi.

Hujjatli ilmiy axborot birlamchi va ikkilamchi manbalarda mavjud bo'ladi. Birlamchi hujjatli manbalarda yangi ilmiy va maxsus ma'lumotlar saqlanadi.



ikkilamchi manbalarda esa birlamchi hujjatlarni qayta ishlashda hosil bo'lgan ma'lumotlar (masalan, katalog, lug'at, tahliliy umumlashtiruvchi referativ to'plamlar va boshqalar) qayd etiladi. Birlamchi hujjatli axborot manblari:

- Kitoblar, monografiyalar, darslik, o'quv qo'llanmalar;
- Davriy matbuot nashrlar - jurnallar, byulletenlar, ilmiy to'plamlar;
- Ilmiy tadqiqotlar va tajribaviy konstruktorlik ishlar haqidagi hisobotlar;
- Me'yoriy hujjatlar, standartlar, texnikaviy yo'riqnomalar, jadvallar;
- Ixtisoslashgan ilmiy-texnik katalog va preyskurantlar;
- Patent hujjatlari;
- Informatsiyaviy nashrlar, ekspress-axborot;
- Xorijiy ilmiy-texnikaviy adabiyotlar, asl nusxalar va tarjimalar;
- Ilmiy anjuman materiallari;
- Ikkilamchi axborot manbalari;
- Qomusiy va ixtisoslashgan lug'atlar;
- Dissertatsiya avtoreferatlari;
- Tahliliy va umumlashtiruvchi referativ to'plamlar.

Bibliografik kataloglar.

Axborotni izlashning bibliografik manbalarni tanlashdan boshlash kerak. Odatda bunday ishni tadqiqotning aniq vazifasiga mos kelishini hamda, izlanish rejasiga hisobga olgan holda, tizimli ravishda amalga oshiradilar. Tizimsiz, noizchil izlanish har doim ko'p vaqtni oladi. Adabiyotni izlash qanday tartibda - xronologik yondashish asosidami yoki boshida hozirgi dolzarb muammolarga bag'ishlangan adabiyotlarni ko'rib chiqib, keyin oldinroq chop etilgan materiallarni tahlil zaruriyati mavjudligini bog'liq.

Axborot manbalari, turli katalog va bibliografik ko'rsatkichlarni bilish ishlariga rejasiga, konkret maqsadga to'g'ri keladigan adabiyotlarni izlash, ular bilan ishlatish sxemasini tuzib chiqishni osonlashtiradi.

Ilmiy-texnikaviy informatsiyani yig'ish.

Sanab o'tilgan hujjatlar ulkan informatsiya oqimini hosil qiladi, uning sur'asini yildan yilga oshirib boradi. Bo'sh yuqorilama va quyilama axborot oqimi bir-biridan farqlanadi.

Informatsiyaning yuqorilama oqimi ijrochilar (ITI oliy o'quv yurtlari, TKB va boshqalar) dan qayd etuvchi idoralarga tomon yo'naladi, quyilama oqim esa bibliografik, sharhlar, referativ va boshqa ma'lumotlar ko'rinishida ijrochilar ularning talabiga ko'ra yo'naladi.

Informatsiya «eskirish» xususiyatiga ega.

Yangi ilmiy va ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar jadal o'sib borishi munosabati bilan informatsiya «eskiradi». Uning «eskirish» qonuniyati 4.01-rasmida keltirilgan. Chet elli tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, informatsiya qimmatining pasayishi

(«eskirish») jadalligi taxminan gazetalar uchun bir kunda 10%, bir oyda jurnallar uchun 10% bir yilda kitoblar uchun 10%ni tashkil etadi. Shuning uchun ulkan informatsiya oqimida yangi, ilg'or, muayyan mavzuni masalani hal qilishda ilmiysini topish faqat bitta ilmiy xodim uchungina emas, balki katta jamoa uchun ham ancha murakkabdir.

Zarur informatsiyani izlash - ijodiy jarayon, shunga ko'ra uni formallashtirish va demak avtomatlashtirish murakkabli kelib chiqadi.

Informatsiya oqimi - tanlangan mavzuni ishlab chiqish uchun zarur hujjatlarni izlash bo'yicha operatsiyalar majmui. Qo'lda, mexanik tarzda, mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Qo'lda izlash odatdagi bibliografik varaqchalar, kartotekalar va nashr ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi. Mexanik izlashda informatsiya etkazuvchilar bo'lib perfokartalar hisoblanadi. Mexanizatsiyalashtirilgan izlash hisobli perforasion mashinalarni, avtomatlashtirilgani esa EHMni qo'llashga asoslanadi.

Informatsiyaviy izlash sistemalarida informatsiyaviy izlash tilining turli talqinlari qo'llanadi.

Optimal natijaga erishish uchun izlash zarurdir, chunki bunda u yoki bu darajada mavzuni ishlab chiquvchi (yoki ishlab chiqaruvchilar) ning o'zi ishtirok etadi. Izlashni amalga oshira borib, ishlab chiquvchi izlash ko'lamini bamosoli tadqiq etadi va o'z informatsiyaviy so'rovi ifodasini aniqlaydi.

### Ilmiy texnikaviy informatsiyani o'rganish, tahlil qilish.

Ilmiy-texnikaviy informatsiyani o'rganish va tahlil qilish - masalani mavzu bo'yicha ahvolini yoritish, ilmiy-tadqiqot maqsadi va vazifasini isbotlash uchun asos.

Informatsiya samarali ishlab chiqilishiga erishish (O'rganish, yodda saqlab qolish va taxlil) uchun bir qator shartlarga amal qilish kerak.

Birinchi shart bo'lib aniqlash, ya'ni o'qishning maqsadini belgilash hisoblanadi. Bu psixologik omil tafakkurni faollashtiradi, o'rganilayotganni tushunishga yordamlashadi, idroklashni ancha aniqlashtiradi. Mazkur holda ilmiy xodim o'zini «muayyan to'lqinga» sozlaydi.

Keyingi shart, bu ilhomlanish. U ilmiy yondashishga asoslanadi va informatsiyani ishlab chiqish samarasini oshiradi.

Informatsiyani sifatli ishlab chiqishni ta'minlash uchun diqqat va fikmi bir erga to'plash zarur. Ishlab chiqish jarayonida turli asab qo'zg'atuvchilar (shovqin, gaplashishlar, xususiy fikrlar va b.)ni bartaraf etish zarur, chunki bular e'tiborni chalg'itadi va tezda toliqishga olib keladi.

Informatsiya ustida muvaffaqiyatli ishlashning muhim omili bo'lib mehnatning mustaqilligi hisoblanadi.

Adabiyotlarni o'rganishda qat'iyat va muntazamlik ancha muhim shartlardan hisoblanadi. Ayniqsa bu narsa murakkab va qiyin yangi matnни o'qishda zarurdir. Materialni to'liq tushunishga erishish uchun o'qish va qayta o'qishga to'g'ri keladi.

Axborotni ishlab chiqish samaradorligi aqliy ishlay olish qobiliyatiga bog'liq. Uning oshirishi uchun to'g'ri ish tartibi muhim shart hisoblanadi. 12 soatlik mehnatdan so'ng 57 minut tanaffus qilish, jismoniy mashqularni bajarish, chuqur kuchli nafas olish va boshqalarni bajarish tavsiya etiladi. Bu markaziy nerv sistemaga rag'batlantiradi va ishlash qobiliyatini oshiradi.

Ilmiy-texnikaviy axborotni ishlab chiqishda ko'chirma, annotasiya, konspekt qo'llaniladi.

Ko'chirma - axborot ayrim qismlarining qisqa (yoki to'liq) mazmuni. Ular qimmatini juda yuqori, chunki ular kichik hajmda ko'pgina informatsiya to'plash imkon beradi va keyingi ijodiy ish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Annotasiya - birinchi manba informatsiyasining qisqacha mazmuni. yordamida matnni xotirada tezda tiklash mumkin bo'ladi.

Konspekt - u yoki bu birinchi manbaadagi informatsiyaning mazmunini ta'riflaydigan bayoni. U mazmunga ko'ra to'liq hamda hajmga ko'ra iloji boricha qisqa bo'lish kerak. Konspektni o'z so'zlari bilan tuzish kerak, bu o'qilganni anglash va tahlil etish talab qiladi va shu bilan ijodiy ishga katta foyda keltiradi.

#### **Informatsiyaga ishlov berish**

Ishlanayotgan informatsiyani eslab qolishning turli usullari mavjud: mexanik mazmuniy, ixtiyoriy, g'ayriixtyoriy.

**Mexanik usul** o'qilganni ko'plab takrorlash va qayta o'qishga asoslangan. Mazkur holda eslab qolinayotgan informatsiya ayrim unsurlari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik bo'lmaydi. Shuning uchun u kam samarali va asosan sana, formula, sitatlar chet so'zlar va h.k.larni eslab qolish uchun qo'llaniladi.

Mazmuniy usul ishlanayotgan informatsiya ayrim unsurlari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni eslab qolishga asoslangan. O'qishda ayrim unsurlarnigina emas, balki yaxlit matnni, uning mazmuni va ahamiyatini tushunish zarur. Eslab qolishning usuli mantiqiy - ma'noviy hisoblanadi, buning natijasida u mexanik usuldan ko'p marta samaraliroqdir.

Ixtiyoriy usulda eslab qolish turli assotsiatsiya qonunlari bilan bog'liq bo'lgan mnemonik yo'llarga asoslanadi.

G'ayri-ixtyoriy usul o'qish jarayonida hissiyotga ko'ra yuzaga kelgan emosiyalar bilan bog'liq matnning u yoki bu parchasini tasodifan eslab qolishga asoslangan.

Shuni ta'kidlash joizki, ishlanayotgan informatsiyani eslab qolishning universal usuli yo'q. Amalda, ko'pincha, usullar majmuvdan informatsiyaning u yoki bu qismini tavsifiga bog'liq holda foydalaniladi.

Ishlanayotgan informatsiyani tahlil tadqiqotning muhim vazifalaridan biri.

Tahlil jarayonida ham informatsiya manbaini, ham ulardagi informatsiyani tasniflash va sistemalashtirish zarur. Manbalarni ikki xil sistemalashtirish mumkin: xronologik tartibda va mavzu bo'yicha.

Birinchi holda barcha informatsiya mavzu bo'yicha ilmiy bosqichga ko'ra sistemalashtiriladi, bular uchun sifat sakrashlari xosdir. Keyin har bir bosqichda tegishli manbalar (bosqichlar) e'tibor bilan tanqidiy tahlil qilinadi. Buning uchun yuqori darajada eruditsiya va bilimga ega bo'lish zarurdir.

Ikkinchi holda (mavzuli taxlil) da informatsiyaning butun hajmi ishlab chiqilayotgan mavzu masalalari bo'yicha sistemalashtiriladi. Bunda katta e'tibor ilmiy-texnikaviy informatsiya so'nggi nashrga qaratiladi, ularda mazkur masala tadqiqoti yakuni keltirilgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik tanlov asosida alohida qiziqish tug'dirgan boshqa manbalar taxlil etiladi.

Informatsiyani taxlil etishning ikkinchi talqini sodda va kam vaqt talab qiladi. Shu bilan birga mazkur talqin bo'yicha mavzu bo'yicha to'liq bo'lmagan informatsiya hajmi tahlil etiladi.

Ishlab chiqish (o'rganish, eslab qolish va tahlil) natijalari bo'yicha ilmiy-texnikaviy informatsiya belgilanadi:

- dolzarflik va mavzuning yangiligini;
- mavzu bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar sohasidagi so'nggi yutuqlar;

- ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari;
- mavzu bo'yicha ishlab chiqarish tavsiyalari;
- ilmiy ishlanmalarning texnikaviy, iqtisodiy va ekologik maqsadga muvofiqligini.

Ilmiy texnikaviy axborotni izlash va ishlab chiqish (o'rganish, eslab qolish va tahlil) ilmiy tadqiqotning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Ularning natijalari asosida mavzu O'zbekistonlik olimlar va talabalar xalqaro Web of Science (WOS) ilmiy-tahliliy materiallar bazasidan foydalanish imkoniga ega bo'ldilar. Mazkur tizimga ulanishni Fan va texnologiyalari agentligi nazorat ostiga oladi. Mazkur tizimga 2017 yilning 1 iyulidan 2018 yilning 1 iyuligacha qadar ulanish uchun O'zbekiston yarim million AQSh dollari miqdoridagi obuna mablag'ini to'lab bergan.

Yurtimiz olimlari hamda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlar uchun yaratilgan bu imkoniyat ilm-fan ahliga bazadagi ilmiy maqolalardan foydalanish, u erda o'zlarining ilmiy ishlarini chop qilish, jahon miqyosida amalga oshirilayotgan so'nggi ilmiy izlanishlar va ularning natijasidan boxabar bo'lish imkoniyatini beradi.

Ilmiy ishlar bazasida bugungacha 18 mingdan ziyod maqola-materiallar, 80 mingdan ziyod monografiyalari mavjud. Baza jahonning taniqli ilmiy jurnallari bilan hamkorlik qiladi. Web of Science tarmog'iga O'zbekiston ilk marotaba 2015 yilda ulangan. Bungacha MDH davlatlaridan Qozog'iston 2010 yilda, Rossiya 2012 yilda tarmoqqa obuna bo'lgan. O'zbekiston ushbu ilmiy ishlar bazasiga material chop etish reytingida 4700 ta hujjat bilan 99-o'rinda turibdi.

WOS tarmog'iga ulanish O'zbekistonga xalqaro ilm-fan hamjamiyati yangiliklarni hisobga olgan holda, ilmiy tadqiqotlar olib borish, mahalliy olimlar izlanishlari bilan xalqaro hamjamiyatni tanishtirish, yosh o'zbek olimlarining ish xorijda e'lon qilish uchun ayni muddao, ning dolzarbligi va yangiligi, uning ma va vazifalari belgilanadi

### 1.3. Ilmiy tadqiqotlarning turlari va strukturalari

Ilmiy tadqiqot (izlanish) uchta tarkibiy qism: insonning maqsadli faoliyati, i mehnat predmeti va ilmiy mehnat vositalaridan iboratdir.

Insonning maqsadli ilmiy faoliyati tadqiqot obyekti haqida (bo'yicha) y bilimlarga yoki obyekt haqidagi (bo'yicha) mavjud bilimlarni to'ldirishga erishish anglab yetishni bilishning aniq usullaridan va ilmiy uskunalaridan (o'lchov, hisot texnikalari) mehnat vositalaridan foydalanishga tayanadi.

Ilmiy mehnat predmeti tadqiqotining faoliyati yo'naltirilgan tadqiqot obyekti u haqidagi (oldingi) bugungacha bo'lgan bilimlar. Tadqiqot obyektiga mo' dunyoning har qanday materiali (elektrotexnik uskunalar, elektrlashtirilgan qurilm mashina va mexanizmlar), jarayonlar (texnologik, energetik, agrotexni elektromagnit, moddiy materiallar elementlari va h.k.lar) kiradi.

Ilmiy tadqiqotlar, ko'zlangan maqsadi, tabiat yoki ishlab chiqarish bo bog'liqlik darajasi, ilmiy ishning xarakteri va chuqurligiga (qamroviga) qa fundamental, amaliy va ishlanmalarga bo'linadi.

Fundamental tadqiqotlar prinsipial yangi bilimlarni (yaratish) barpo etish oldinda mavjud bilimlar sistemasini rivojlantirishga qaratiladi va undan maqs tabiatning yangi qonunlarini yaratish (kashf etish) voqeliklar orasidagi bog'liqliklar ochib berish va yangi nazoratlar yaratishdir. (Masalan, elektromagnit mayd nazariyasi agroinjeneriyada resurslar tejamkorligi ilmiy - metodologiyasini yaratish energiyani muhitda harakatlanishi qonunini va h.k.lar).

Amaliy tadqiqotlar texnika sohasida yangi ishlab chiqarish vositalarini, iste'm mahsulotlarini va h.k.larni yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirish yo'naltirilgan bo'lib, uni maqsadi fundamental tadqiqotlarda to'plangan ilm omillarni amaliy tadqiqotlar orqali o'z o'rniga qo'yishdir. (Masalan, urug'li mahsulotlarni saralash elektrotexnologiyasi va texikasini yaratish, energiya tejamko meva quritish texnikasini yaratish, asinxron motorlarni quvvat koeffitsiyentini ( $\cos \phi$ ) oshirish teznik vositasini ishlab chiqish va h.k.lar).


Ishlanmalar yoki loyiha-konstruktorlik ishlari (LKI) amaliy tadqiqotlar natijalarini (masalan texnika sohasida) texnik yechimlarni (mashina, qurilma, material mahsulot) ishlab chiqarish texnologiyalarini tajriba nusxalarini yaratish va sinab ko'rish, yangiliklarni takomillashtirishda foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotning

yakuniy qismidir. (Masalan, elektr maydoni yordamida urug'lik donlarni saralash texnologiyasini amalga oshiruvchi texnik qurilmani yaratish, dielektrik don quritish usulni amalga oshirish texnik qurilmasini ishlab chiqish, ichimlik suvga impulsli ishlov berish elektr qurilmani tajriba nusxasini ishlab chiqish va h.k.).

Yuqoridagi ilmiy-tadqiqotlar klassifikatsiyasi va ularni chegaralanishi ko'pchilik hollarda shartli bo'lsada, ularni fanning muayyan bir sohasiga tegishligi birlashtirib turadi. (1.5-rasm).

1.5-rasmda keltirilgan sxemada loyihalash va o'zlashtirish bosqichlari bir vaqtning o'zida fan va texnika sohasiga tegishli hisoblanadi. Shuningdek, fundamental tadqiqotlar va ishlab chiqarish oralig'ida o'zaro bog'langan bosqichlar: amaliy tadqiqotlar - ishlanma - loyiha joylashgan.


Ilmiy tadqiqotlar strukturasi. Ilmiy izlanishlar (tadqiqotlar) - obyektiv borliqni, qonuniyatlar va real dunyo voqeliklari orasida bog'liqlikni anglab yetish - bilish jarayonidir.



1.5-rasm. Ilmiy tadqiqotlarning asosiy turlari - fan va ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqlik sxemasi.

Bilish-ilmiy izlanishlar (tadqiqotlar) yordamida amalga oshiriladigan bilmaslik-dan bilimga, chala yoki noaniq bilimlardan to'laroq va aniq bilimlarga inson onggi va tafakkuri yo'naltirilgan murakkab jarayondir. Ilmiy tadqiqotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va texnika yo'nalishida ko'pgina holatlarda 1.6-rasmida keltirilgan strukturaga monand ketmaketlikda tashkil etiladi.

Ilmiy tadqiqotlar olib borishni har bir bosqichida ilmiy muammoni (masalani) umumiy yechimi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib boriladi. Ilmiy tadqiqotning birinchi bosqichida nafaqat tadqiqot olib boriladigan muammo yoki masala shakllantiriladi, balki ishning muvaffaqiyatli yakuni ko'p tomonlama bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot vazifalari ham aniq shakllantiriladi.



1.6-rasm. Ilmiy tadqiqot strukturasi.

Ilmiy muammoni (masalani) shakllantirishga tadqiqot olib borilayotgan muammo yoki masalaga o'xshash masalalarning yechimlarini texnik va nazariy usullari vositalari, hamda turdosh sohalardagi tadqiqot natijalari haqida ma'lumotlar yig'ish tahlil etish kabi muhim ilmlar kiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'lumotlar yig'ish ulardan masalani yechishda foydalanish tadqiqot ishlari tugaguncha ham davom etishi mumkin.

**Ilmiy tadqiqot** - yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyatlari turlaridan biri. Unga ob'yektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot ham shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqotning bir-biri bilan boglangan ikki kiyem — tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan taxlil etish, tajriba o'tkazish, olingan natijalarni taxlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi farazlar va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish kerak. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o'zidagina emas, balki boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lishi ham keng qo'llaniladi.

**Fan yoki ilm-fan ilmiy metod** bilan to'plangan bilimlarning tartibli tizimidir. **FAN** - dunyo xaqidagi bilimlar sistemasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli-olaning

ilmiy. manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o'z ichiga oladi; inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi o'zining o'rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir.

Fanning ilk kurtaklari kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq holda maydonga kelgan. Dastlabki bilimlar amaliy xarakterga ega bo'lgan. Tafakkur sistemasining kurtaklari mifologiya sifatida qadimiy Sharq va Yunonistonda paydo bo'la boshlagan. Mifologiya fanga o'tish bo'sag'asida ma'lum bosqich vazifasini bajargan. Rivojlanish davom etishi bilan mifologiya o'rnini naturfalsafa egalladi. Avestoya mifologiya va fan unsurlari bor edi. Zenon, Demokrit, Aristotel va boshqa qadimgi zamon mutafakkirlari tabiat, jamiyat va tafakkurni goho birgalikda, goho ayrim-ayrim ravishda bayon etishga urina boshladilar. Dunyoni bir butun, deb ifodalovchi tushunchalar, isbotlash usuli paydo bo'ldi. Ellinizm davrida Yevklid, Arximed, Ptolemey tomonidan geometriya, mexanika, astronomiya sohasida dastlabki nazariy sistemalar yaratildi. O'rta asrda Sharq olimlari fanga ulkan hissa qo'shdilar. Ular qadimiy fan yutuqlarini, ilmiy asarlarni saqlash, tarjima qilish va ularni tarqatish masalasiga katta e'tibor berdilar. Ayni vaqtda fanni yangi yutuqlar bilan boyitdilar, yangi kashfiyotlar qildilar. O'rta Osiyoning buyuk olimlari ilm-fanning yangi tarmoqlarini yaratdilar va yangi qonun-qoidalarni kashf etdilar. Muhammad al-Xorazmiy tenglamalar haqidagi fan sifatida algebra va to'ng'ich algoritmlarni yaratdi, astronomiya sohasidagi bilimlarni algoritmik usulda ifodalab berdi. Axmad al-Farg'oniy astronomiyaga sistema tarzini berdi, matematik geografik va geodeziyaga Farg'oniy stereografik proyeksiyalar nazariyasini yaratdi. Hamid Xo'jandiy (10-asr) kub tenglamalar nazariyasini chuqurlashtirdi. Mahmud Koshg'ariy o'z davrining qomusi bo'lgan "Devonu lug'otit turk"ni yozdi. Abu Rayhon Beruniy geodeziya, mineralogiya, farmakognoziyani yaratdi. Abu Ali Ibn Sino tabobatning ilmiy zaminini qo'ydi (11-asr) Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi sonlar nazariyasiga muhim hissa qo'shdilar va kuzatish astronomiyasini yuqori pog'onaga ko'tardilar (15-asr).

Yangi davr deb ataluvchi zamonda fanning ijtimoiy roli yanada oshdi. U madaniyatning muhim tarmog'i va texnikaning nazariy asosiga aylana boshladi. 16-17-asrlarda klassik fizikaning poydevori qurildi. Fanning nazariya darajasiga ko'tarilganligi tafakkurning induktiv va deduktiv rivojlanishiga yo'l ochib berdi.

Fan tizimi umuman quyidagi katta guruhlarga bo'linadi:

- tabiiy fanlar;
- gumanitar fanlar;
- texnika fanari va ijtimoiy fanlar.

Bu guruhlarning har qaysisidan juda ko'p mustaqil fan sohaları ajraladi. Mustaqil fanlar bir-biriga bog'liq sohalarda ilmiy izlanishning yirik va istiqbolli muammolarini yechishga to'g'ri keladi, bu hol hozirgi paytda fanlararo va kompleks tadqiqotlarni keng avj oldirishni taqozo etadi. Tabiatni muhofaza qilish muammosi bunga yaqqol

misol bo'la oladi. Bu muammo texnika fanlari, Yer to'grisidagi fanlar, biologiya, matematika, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqalar bilan qo'shilib ketgan. Bu xildagi ilmiy va ilmiy texnik muammolarni hal qilish uchun fanlarda tadqiqotlarni dasturiy maqsadga ega tashkil etish metodi keng qo'llaniladi. Ilmiy tadqiqotlarni 2 ga: fundamental va amaliy tadqiqotlarga ajratish qabul qilingan.

Tabiat, jamiyat, tafakkurga xos qonunlarni bilib olish fundamental tadqiqotlarning, bu tadqiqotlar natijalarini bilim orttirish va ijtimoiy amaliy muammolarni hal qilish uchun qo'llash amaliy tadqiqotlarning vazifasidir. Fundamental tadqiqotlar, odatda, amaliy tadqiqotlardan oldinda boradi va ular uning nazariy asos yaratadi. Fundamental va amaliy tadqiqotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash, ilmiy yutuqlar natijalarini amaliyotga tezroq joriy etish hozirgi davr fani uchun muhim vazifalardan biridir.

Shunday qilib Sharqda, xususan, O'rta Osiyoda, ilmiy faoliyatni akademiyalar shaklida tashkil qilish an'anaga aylandi va Urganchdagi akademiya o'xshash muassasalar keyingi asrlarda ham yaratilgan (tuzilgan). Samarqandda akademiyalar Mirzo Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan XV asrda tashkil etilgan. Akademiya qoshida observatoriya, o'sha davrning boy kutubxonasi va oliy o'quv yurti – madrasa bo'lgan. Madrasada diniy fanlar bilan bir qatorda matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot, geografiya va boshqa dunyoviy ilmlar o'qitilgan. Ulug'bekning akademiyasida mashhur olimlar – Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Ali Qushchi dars bergan, o'tkaziladigan tadqiqot sohalari ham ularning yo'nalishlariga mos bo'lgan. Samarqanddagi Ulug'bek akademiyasi matematika, astronomiya va geografiya fanlarining yuksalishiga salmoqli hissa qo'shdi.

IX-XV asrlarda aniq va tabiiy fanlar (matematika, astronomiya, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, dorishunoslik va boshqa) tez sur'atlarda rivojlana boshladi. Platon, Aristotel, Gippokrat, Galen, Arximed, Ptolomey, Yevklid va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari arab tiliga tarjima qilindi. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'aniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Abu Ali ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Qozizoda Rumi, Jamshid Koshiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi va Sharqning boshqa olimlarining ilmiy tadqiqotlari darajasi ba'zi sohalarda boshqa mamlakatlarning mutafakkirlari ancha keyin o'tkazgan izlanishlar natijalaridan yuqori edi. Abu Rayxon Beruniy tarix, xronologiya, farmakologiya, mineralogiya, astronomiya, matematika bo'yicha asarlar yozdi, Yerda yangi qit'a borligini nazariy jihatdan asoslab, hisoblab chiqdi va jahon tan olgan ko'plab masalalarni yechdi. Ko'plab tadqiqotchilar Urganchdagi akademiyaning tashkil qilinishini shaharga Abu Rayhon Beruniyning tashrifi va uzoq vaqt ishlagani bilan bog'lashadi.

Xuddi shu paytda bu yerda O'rta Osiyoning buyuk olimi – Abu Ali ibn Sino ishlagan. Ibn Sino haqiqatdan qomusiy olim – tabiatshunos, tibbiyot xodimi, astronom, matematik, musiqashunos, yozuvchi va shoirdir. U Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan. Ibn Sino faoliyatini anglatuvchi ibora – "Madadi Sino" – Yevropa tillariga

moslashtirilib, fandagi yo'nalishni bildiruvchi "Meditsina" sifatida o'zlashtirilgan. XVIII asrning mashhur tabiatshunos olimi Karl Linkey ibn Sinoning botanikadagi xizmatlarini yuksak baholab doim yashil nodir o'simliklardan biriga uning ismini berdi. Ibn Sino 400 dan ortiq asar yozgan, shulardan 240 tasi bizning kunlarimizgacha yetib kelgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida olimning 50 dan ortiq asarlari va bir qator ularga yozilgan sharhlar saqlanadi. Bu asarlar orasida olim ijodining toji hisoblanmish besh jildlik "Al qonun fit tib" ("Tib ilmi qonunlari") ham bor. Bu asar o'z davrida tibbiyot fani darajasini juda yuqori ko'tardi, ibn Sino vafotidan yuz yil o'tgach G'arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tan olindi. XII asrda "Tib ilmi qonunlari" lotin tiliga tarjima qilindi va qo'lyozmadayoq tarqalib ketdi. Bu asar 1493-yilda Venetsiyada lotincha tarjimada nashr qilindi va yuz yil mobaynida 16 marta chop etildi. Osiyo va Yevropaning barcha mashhur o'quv yurtlarida 500 yil tibbiyot mana shu asar asosida o'qitildi. Ushbu bebaho tib qonunlari hozirgi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

Matematik va astronom Qozizoda Rumi (Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud, taxminan 1360-1437) Mirzo Ulug'bekning ustozidir. Ulug'bek maktabi shakllanishiga uning qo'shgan salmoqli hissasini inkor etish mumkin emas. Ilmdagi muvaffaqiyatlari uchun uni "Afrotuni zamon (o'z davrining Platoni) deb atashgan. Mashhur matematik va astronom al-Koshiy (G'iyosiddin Jamshid Koshiy) birinchi bo'lib matematikaga pozitsion asosda o'nli kasrlarni kiritdi va buni nazariy jihatdan isbotladi, Sin ni 1 gradus aniqlikkacha, P ni 17 raqamgacha hisoblab chiqdi. U o'zining qator mashhur asarlarini astronomiyaga bag'ishlagan. Al-Koshiy Qozizoda Rumi bilan birgalikda Ulug'bek observatoriyasi qurilishini boshqargan.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394-1439) o'zidan ulkan ilmiy va madaniy meros qoldirdi, "Ziji jadidi Ko'ragoniy" ("Yangi Ko'ragon astronomik jadvallari") – "Ulug'bek ziji" buyuk olimning dunyoga mashhur asari. Ulug'bek Samarqandda observatoriya va madrasa qurdi, o'z akademiyasini tashkil qildi. O'z shogirdlari bilan mingdan ortiq yulduzni o'rganib, ro'yxati – "yulduzli osmon xaritasi"ni tuzdi. Ulug'bek akademiyasida olimlar faqat astronomiya bo'yicha emas, balki matematika, falsafa, tarix va boshqa fanlarga oid tadqiqotlar ham olib borishgan. Ulug'bek akademiyasida ishlagan atoqli astronom Ali Qushchi (Mavlono Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi (1403-1474) o'zidan matematika va astronomiyaga bag'ishlagan dunyoga mashhur ilmiy ishlarini qoldirdi. U yil fasllarining o'zgarishini Yerning Quyoshga yaqinlashishi natijasida Quyosh nurlarining Yer sathiga ta'siri bilan bog'liq deb hisoblagan. Quyoshning tutilishi jarayonini ilmiy nuqtai nazardan aniqlagan. Ali Qushchining asarlari XVI-XVII O'rta va Yaqin Sharqda astronomiya va matematika rivojiga salmoqli ta'sir qilgan.

Mirzo Ulug'bek, al-Koshiy, Ali Qushchi sonlar nazariyasi ravnaqiga salmoqli hissa qo'shishdi va astronomik kuzatuv bilimlarini yanada yuqori darajada ko'tarishdi. 1428-1429-yillarda Ulug'bek radiusi 40 metr kvadrant bosh uskunasi bo'lgan,

o'lehamlari tengsiz, noyob astronomik rasadxona qurgan. Samarqandda 30 kuzatishlar asosida tuzilgan 1018 yulduz katalogi uzoq yillar dunyoda tengsiz qoldi. Ulug'bek astronomiya maktabi yutuqlari Sharq va G'arb fani yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ilmiy asarlari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilindi. Yevropa va Amerikada keng tarqaldi. Mirzo Ulug'bek jahon fani tarixida Tixo Brahe, Iogann Kepper, Nikolay Kopernik va Galileo Galiley bilan bir qatorda turadi. Lomonosov nomidagi MDU katta zalida barcha davrlar olimlariga bag'ishlangan tarixiy xotira galereyasida o'rta asrlarning mashhur olimi Mirzo Ulug'bekning portret haqli ravishda o'ziga mos joyni egallagan. O'zbekistonning bir qator shaharlarida va Belgiyada Mirzo Ulug'bekka haykal o'rnatilgan, qadimiy Samarqand observatoriyasiga, qator universitetlarga, jumladan O'zbekiston Milliy universiteti maktablarga, shaharga qarashli tumanlarga va O'zbekistondagi fizik-yadroshunolig qo'rg'oniga uning nomi berilgan.

XIX asrda O'zbekistonda birinchi ilmiy muassasa – Toshkent fizik – astronomiya observatoriyasi (O'zR FA Astronomiya instituti) 1873-yilda tashkil qilingan. Boshqa observatoriya ekspeditsiyalar uyushtirish bilan shug'ullangan va natijada mintaqada mingdan ortiq joyning koordinatalari aniqlangan, XX asrning 30- yillarida observatoriya astronomiyaning fundamental masalalarini tadqiq qila boshladi.

1918-yilda Turkistonda iqtisod va madaniyatning turli sohalari uchun tayyorlovchi maxsus muassasalar ochilgan. Ulardan biri 1918-yil 21-aprelda ochilgan Turkiston xalq universitetidir. Sal keyinroq Andijon, Qo'qon, Samarqand, Farg'ona, Jizzax va boshqa shaharlarda uning filiallari ochildi. 1919-yilda Toshkentda fizioterapiya ilmiy-tekshirish instituti tuzildi. 20-yillarda tarix, tibbiyot, tabiiy fanlar sohasida qator ilmiy-tekshirish institutlari ochildi. 1920-yilda Turkiston davlat universiteti (1923-yildan O'rta Osiyo davlat universiteti, 1960-yildan Toshkent davlat universiteti, hozir- O'zbekiston Milliy universiteti) tashkil qilindi. Keyinchalik mintaqadagi tabiiy boyliklarni o'rganish maqsadida universitet negizida mustaqil o'quv yurtlari va fanning turli yo'nalishlari bo'yicha qator ilmiy muassasalar ochildi. 1940-yilda Toshkentda 1932-yilda tuzilgan ilmiy komitet asosida O'zbekistonda SSSR FA filiali tashkil etildi va shu vaqtdan boshlab filial O'zbekistondagi bosh ilmiy tadqiqot markazi bo'lib kelayapti. O'sha paytda uning tarkibiga geologiya, botanika, kimyo, suv xo'jaligi muammolari (1941-yildan energetika instituti), tarix, til va adabiyot institutlari; tuproqshunoslik, zoologiya, fizika va matematika (geliotexnika laboratoriyasi bilan) bo'limlari; Toshkent astronomik observatoriyasi (Kito yilda O'zbekistonning ilmiy-tekshirish institutlarida va oliy o'quv yurtlarida 1940-1945) davrida respublikada 40 dan ortiq ilmiy-tekshirish institutlari va oliy o'quv yurtlari ish olib borgan.

1943-yilda O'zbekistondagi SSSR FA filiali O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi sifati qayta tashkil qilindi. Bu vaqtda uning tarkibida 10 ta ilmiy-tekshirish institutlari, shu jumladan 1943 yilda tuzilgan fizika-texnika, tarix, sharqshunoslik, iqtisodiyot institutlari bor edi. 11 ta akademik-ta'asischi, 18 ta muxbir a'zo, 3 ta faxriy a'zo akademiya a'zolari bo'lishdi. Akademiya muassasalarida 210 nafar ilmiy xodim ishlardi, ulardan 28 nafari fan doktori va 80 tasi fan nomzodi edi. 40- yillarning ikkinchi yarmida respublika olimlarining kuchlari asosan urushdan keyingi iqtisod, madaniyat, tibbiyot va boshqa sohalarni yuksaltirishga yo'naltirilgandi.

1958-yili Toshkent shahri yaqinida yadro reaktori qurildi, u yadro fizikasi taraqqiyotiga asos bo'ldi. 60-70-yillarda O'zbekiston tabiiy va ijtimoiy fanlar sohalarida ish olib borayotgan ilmiy muassasalarning faoliyati butunlay respublika oldida turgan muhim iqtisodiy va madaniy masalalarni yechishga yo'naltirilgandi. Paxtachilik, irrigatsiya, energetika, rangli metallurgiya va boshqa tarmoqlar yuksalishining kompleks tadqiqiga alohida e'tibor qaratildi. 1987-yili Toshkent viloyatining Parkent tumanida nodir "Katta quyosh pegi" bizerkal optik-gelio-energetik tizim qurilishi tugallandi va ishlatishga topshirildi.

Mamlakatda fanning yanada rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 1992-yil 8-iyuldagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining "Davlat tomonidan fanning rivojlanishi va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi yuqoridagi Farmonni bajarish yuzasidan chiqargan Qarori ancha ta'sir qildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2004-yil 9-noyabrda 532-sonli "Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yilligini nishonlash to'g'risida" va 2005-yil 1-noyabrdagi 240-sonli "Xorazm Ma'mun Akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va 1000 yillik yubileyini nishonlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlar qabul qildi. Shunday qilib, Xorazm Ma'mun Akademiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'limi sifatida tiklandi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tashqi ishlar vazirligi va YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi bilan hamkorlikda 2006-yil 20-sentabrdan-12-oktabrgacha YUNESKOning shtab-kvartirasida (Parij sh.) ko'rgazma tashkil qilishdi va Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjuman o'tkazishdi. O'zbekistondagi xorij davlatlarning qator elchixonalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi olimlari ishtirokida Xorazm Ma'mun Akademiyasi faoliyatiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazishdi, shunday konferensiyani yana Saudiya Arabistoni Ilmiy-tadqiqot markazi Koreyaning Kyongxi universiteti bilan birgalikda o'tkazishdi.

Fanlar akademiyasi faoliyatini kuchaytirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yil 7-avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishini boshqarish va muvofiqlashtirishni takomillashtirish chora- tadbirlari

to'g'risida"gi Qarori va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi qoshida Fan texnologiyalar rivojini muvofiqlashtirish komitetini tashkil qilish alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bozor iqtisodiga o'tish davrida ilmiy-tekshirish muassasalari olib borayotgan asosiy, amaliy va innovatsion tadqiqotlarga katta e'tibor qaratadi. Bugungi kunda yuqori bilimni talab qiluvchi mahsulotlar va ilmiy-tekshirish muassasalari xizmatlarini keng targ'ib qilish, amaliy ilmiy natijalardan foydalanishning yangi yo'llari aniqlanib, hayotga taqdim qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy bo'limlari faollashtirilmoqda.

### O'rta Osiyo allomalarining fan taraqqiyotidagi o'rni.

Ma'lumki, 8 asrda Yaqin Sharqda Arab xalifaligi shakllandi va rivoj topdi. 9 asrning o'rtalariga kelib Arab xalifaligi Sharqda yirik imperiyaga aylandi. Davrda Bog'dodda birinchi akademiya – "Donolik uyi" tashkil topdi. Bu verda ilmiy, diniy muzokaralar uyushtirilib, turli millatlarga xos olimlar bilan birgalikda ilmiy muhokamalar avj oldi. Yaqin va O'rta Sharqda yangi-yangi ilm maskaravujudga keldi, asarlar yozish, kitob ko'chirish, arab tiliga tarjima qilish uchun maxsus tarjimonlar maktabi tuzildi. Akademiya faoliyatida O'rta Osiyodan kelgan ko'plab olimlar ham muhim o'rin egalladilar.

9-10 asrlarda tabiatshunoslik fanlarning rivojlanishida aniq va fundamental fan sohasida ijod etgan musulmon olami vakillarining alohida hissalarini bor.

Bu o'rinda: Abu Abdullo Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy (780-880), Kasr Al-Farobiy (873-950), Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy (973-1050), Ahmad Farg'oniy, Abu Ali Xusayn ibn Sino (980-1037), Umar Xayyom (1024-1123), Mirzo Tarag'ay Ulug'bek (1394-1449) va boshqalarni aytib o'tish joizdir. O'rta asrlarda Sharqda ilm-fanda erishilgan yutuqlarning ayrimlarini ko'rib chiqaylik. Kasr esa savdo-sotiq matematika masalalari uchun boy material bersa, uzoq yurtlarga sayohat va rivojlanishi esa amaliy san'atning rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun amaliy masalalarni hal qilishga qulay bo'lgan yangi matematika Sharqda paydo bo'ldi. Xalifa al Mamun podshohligi davrida ijod etgan xorazmlik al-Xorazmiy "Arifmetika" va "Algebra bo'yicha traktat" asarning muallifi edi. Yevropaliklar "Arifmetika" asarini orqali arab sonlari, butun sonlar va kasrlar bilan o'tkaziladigan arifmetik amallar bilan tanishdilar. Al-Xorazmiyning arifmetik traktati matematikaning yangi yo'nalishi algebraga ("Al Jabr") nomini berdi. Al-Xorazmiyning ishlarida birinchi marta chiziqli va kvadrat tenglamalar yechilgan.

Xorazmiyning mashhur asari "Kitob suratil arz" ("Yer yuzining haritasi") musulmon Sharqida geografiya ilmini boshlab bergan. Asarda, o'sha vaqtda insonlarga ma'lum bo'lgan geografik ob'ektlar tasvirlanadi. Osiyoni sxematik haritasi beriladi.

Ahmad al-Farg'oniy (797-865 yillar) astronomiya, matematika, geografiya va boshqa ilmiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan qomusiy olim. Sharqda al-Farg'oniy. Yevropada Alfraganus tahalluslari bilan mashhur bo'lgan. Uning astronomiya, geografiya va matematika sohasidagi asarlari bu fanlar taraqqiyotiga qo'shilgan salmoqli hissa bo'lgan va keyingi davrlarda o'tgan olimlar uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Arab xalifaligi davrida Xorun ar-Rashid (786-809) va uning o'g'li al-Ma'mun davrida ikki rasadxona: biri Bog'dodda Shammosiya degan joyda, ikkinchisi Damashqda yaqin Kasiyun nomli tog'da qurildi. Al-Farg'oniy Bog'dod rasadxonasida ko'pgina kashfiyotlar qilgan. Jumladan, 812 yilgi Quyosh tutilishini oldindan bilgan va bu haqda ilmiy kuzatish olib borgan. Al-Farg'oniy Yerning dumaloqligini shunday dalillar bilan isbotlaydiki, ular o'z ilmiy qiymatini hali ham yo'qotgani emas. U Nil daryosidagi suv sathini o'lchaydigan yangi o'lchov asbobi "Miqyos jadidni" yaratdi. Al-Farg'oniy asarlari 11- asrdan boshlab Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilina boshladi.

Ahmad al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari "Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitobi"dir. Olimning bu asarida astronomik asboblardan Quyosh soatlari bayon qilinadi. Bu asar "Astronomiya asoslari haqida kitob" nomi bilan ma'lum bo'lib, 1145-1175 yillarda Yevropada lotin tiliga tarjima qilingan va bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan. Asarning geografiyaga oid bo'limi "Yerdagi ma'lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi hodisalar haqida" deb ataladi. Asarda Yerning sharsimonligi, bir xil osmon yoritkichlarining turli vaqtda ko'tarilishi, tutilishi va bu tutilishning har bir joyda turlicha ko'rinishi, masofalar o'zgarishi bilan ularning ko'rinishini o'zgarishi to'g'risida ma'lumot beradi.

Hozirgi kungacha Ahmad al-Farg'oniyning yetti asari saqlanib qolgan. ular Berlin, London, Parij, Tehron, Toshkent, Dushanbe, Mashhad, Panta, Rampur, Xalab va Qohiradagi yirik kutubxonalarda saqlanmoqda.

Abu Nosir Farobiy (873-950 yillar) jahon ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olim. O'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, Yunon falsafasini sharhlab, dunyoga tanitganligi uchun ulug'lanib "Al-Muallim as-Soniy", "Sharq Arastusi" deb atalgan. Farobiy boshlang'ich ma'lumotini ona yurtida oldi, Toshkent, Buxoro, Samarqanda o'qidi. Eronning Isfaxon, Hamodon, Ray shaharlarida bo'ldi. So'ng, Bog'dodda yashab zamonasining olimlari bilan ilmiy muloqotda bo'lgan. Umrining oxirini Damashqda o'tkazgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u yetmishdan ortiq tili bilgan va ilmiy turli sohalariga oid 160 dan ortiq risolalar yozgan.

Farobiy Antik davr olimlari – Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriy va boshqalar asarlariga sharhlar yozgan. Uning sharhlari O'rta va Yaqin Sharqda mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Abu Ali ibn Sino Farobiy sharhlarini o'qib, Aristotel asarlarini tushungan ta'kidlaydi.

Farobiy falsafaning umumiy masalalariga, insonning bilish tomonlarining fa'ol bilish tomonlariga, materiyaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarini o'rganishga, materiya xossalari va turlarini, noorganik tabiatning, hayvonlar inson organizmining xususiyatlari, tilshunoslik, she'riyat, ijtimoiy-siyosiy hayot davlatni boshqarish va boshqa masalalarga oid asarlar yozdi.

Farobiyning tabiatshunoslikka oid "Hajm va miqdor haqida so'z", "Geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob", "Astronomiya qoidalarini mulohazalarni to'g'irlash usuli haqida maqola", "Fizika asoslari haqida", "Alkimyo ilmining zarurligi va uni inkor etuvchilarga raddiya haqida maqola", "A'zolari haqida risola", "Hayvon a'zolari to'g'risida so'z" va boshqalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotganalri yo'q.

Farobiy asarlari 12-asrdan boshlab, lotin qadimiy yaxudiy, fors tillariga tarjima qilinib, Yevropada keng tarqaldi. Toshkentda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Farobiyning 16 risolasi saqlanmoqda.

Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) mashhur qomusiy olim Yevropada "Avitsenna" nomi bilan mashhur bo'lgan olim.

Abu Ali ibn Sino o'z zamonasining nafaqat buyuk tabibi va faylasufi bo'lgan balki atoqli tabiatshunos olim sanalgan. U matematika, kimyo, botanika, zoologiya va boshqa qator fanlar bilan ham shug'ullangan. U fizikaviy hodisalar, xususan mexanika, issiqlik, tovush va yorug'lik hodisalarini ham o'rgangan. Ibn Sino ijodida mexanika mashinalarni yasash g'oyasi ham o'z ifodasini topgan. Masalan, mexanika qonunlarini o'rganishda Ibn Sinoning "Donishnoma" kitobini keltirish mumkin. Ibn Sino asarida: "Agar kuch yo'qolsa shu sabab vujudga keltirgan oqibat ham tura olmaydi, xil sharoitda nima kichik bo'lsa, tezroq harakat qilishi nima katta bo'lsa, sekinroq harakat qilishi kerak" – deb ta'kidlab, massa inersiya o'lchovi degan fikrni bildirgan. Keyinchalik ingliz olimi I.Nyuton massaga shunday ta'rif bergan. Shu bilan birgalikda Ibn Sino Nyutonning inersiya qonuni, hamda ikkinchi qonuniga mos keladigan mulohazalarni ham bergan.

O'rta asr Sharqining buyuk olimlaridan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy metallar va boshqa moddalarning solishtirma og'irliklarini tajribada katta aniqlik bilan o'lchagan. Hozirgi zamonaviy usullarda aniqlangan metallarning solishtirma og'irliklarni taqqoslaganda Beruniy tomonidan aniqlangan qiymatlarining aniqlik darajasiga ancha yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Beruniy Yer radiusini o'lchashning usulini ishlab chiqdi. Uning o'lchashlari bo'yicha Yerning radiusi 1081,66 farsaxga, ya'ni 6490 km ga teng. Beruniy Quyosh tutilishi vaqtida Quyosh tojini kuzatdi va uni tushuntirib berdi. U Yerning Quyosh atrofida aylanish to'g'risida fikrni aytgan va geliotsentrik nazariyasini olg'a surdi. Globusni ixtiro qildi.

Sharqning buyuk allomasi – astronom olim, davlat arbobi Mirzo Ulug'bek buyuk Amir Temurning nevarasi bo'lgan. U Samarqandda o'z davrida jahonda yagona hisoblangan observatoriyani qurgan. Mirzo Ulug'bekning butun jahonda unga shuhrat keltirgan asosiy asari "Ziji Ulug'bek", "Ziji Ko'ragoniy" va "Ziji Jadida Ko'ragoniy" nomlari bilan ma'lum. Samarqand ilmiy maktabining shoh asari bo'lgan "Zij" o'rta asr astronomiyasi va matematikasini o'z ichiga olgan. 16-asrdan boshlab hozirgi kungacha, Yevropada lotin va boshqa tillarga tarjima qilingan. "Ziji" da keltirilgan jadvallarning aniqligi va qo'llanilgan matematik usullariga ko'ra u o'rta asrlarda yozilgan astronomik asarlarning eng mukammali bo'lgan.

Shunday qilib, Sharqning buyuk alomalari, tabiatshunos olimlari o'zlarining ilmiy ishlari bilan Yevropa, qolaversa jahon sivilizatsiyasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shganlar.

## II bob. SCOPUS bibliografik va referativ malumotlar bazasi

«Scopus» (skopus) - ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalarga sitata keltirish o'rganib borish uchun uskuna va bibliografik hamda referativ ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Texnik, tibbiyot va gumanitar fanlar bo'yicha 5 mingta noshir tomonidan 24000 ilmiy nashrlar nomlari qayd qilinib boriladi.

### Scopus o'zi nima?

Scopus bu ma'lumotlar bazasiga kiritilgan ilmiy jurnallar, kitoblar konferentsiyalarni o'z ichiga olgan ilmiy adabiyotlarning tezislari va maqolalarini eng yirik ma'lumotlar bazalaridan biridir. 2004 yilda Elsevier tomonidan tashkil etilgan, bu global axborot va tahlil kompaniyasi.

Ushbu ma'lumotlar bazasi tabiiy va insoniy 41 mingdan ortiq ilmiy nashrlar qamrab olgan, shundan 38 mingdan ziyod ilmiy jurnallarni ham. Nashrlar ro'yxatini har yili yangilanadi, shuning uchun yangi ilmiy adabiyotlar qat'iy ilmiy mezonlarga javob berishi va mutaxassislarning qat'iy tanloviga bo'ysunishi sharti bilan doim ravishda qo'shilib boriladi. Ushbu standartlarga muvofiqligini yo'qotadigan muammolar qayta ko'rib chiqiladi va olib tashlanadi. Siz jurnalning Scopus ma'lumotlar bazasi tomonidan indekslanganligini tekshirishingiz yoki maqolalar to'g'ridan-to'g'ri veb-sahifasida nashr etish uchun tegishli jurnalni tanlashingiz mumkin.

Shunga ko'ra, maqolalarni qidirish uchun ma'lumotlar bazasidan foydalanishingiz mumkin (<https://naukava.com>). Ba'zi maqolalar bepul, ba'zilariga esa pul evaziga kirish mumkin. Ma'lumotlar bazasi bilan siz tegishli nashr uchun veb-saytga kirishingiz, post talablarini o'qishingiz, havolalar sonini tekshirishingiz va boshqalar.

Scopus bu Elsevierning (<https://www.elsevier.com/>) mavhum va iqtiboslar bazasi 2004 yilda boshlangan. Scopus taxminan 11 678 noshirning 36,377 nomini (22 794 faol nom va 13 583 nafaol nom) qamrab oladi, shulardan 34 346 tasi ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilgan yuqori darajadagi fan sohalaridagi jurnallar: hayot fanlari, ijtimoiy fanlar, fizika fanlari va sog'liqni saqlash fanlari. U uch turdagi manbalarni o'z ichiga oladi: kitoblar turkumi, jurnallar va savdo jurnallari. Scopus ma'lumotlar bazasiga kiritilgan barcha jurnallar, (IFAC Journal of Systems and Control, <https://www.journals.elsevier.com/Annales-durologie>, <https://www.journals.elsevier.com/european-economic-review>) kim tomonidan nashr etilganligidan qat'iy nazar, har yili yuqori sifat standartlarini ta'minlash uchun qayta ko'rib chiqiladi. Scopus-dagi qidiruvlar, shuningdek, ma'lumotlar bazalarini qidirishni o'z ichiga oladi [1]. Scopus har bir nom uchun to'rt xil sifat o'lchovini beradi; ular h-Indeks, CiteScore, SJR (SCImago Journal Rank) va SNIP (Qog'ozga normalizatsiya qilingan ta'sir manbai).

Bir nechta maqola chop etgan mualliflar uchun Scopus-da individual hisoblar yaratiladi - noyob muallif identifikatorlari (Author ID) bilan muallif profillari. Ushbu profillar muallifning ismi-sharifining variantlari, ish joylari ro'yxati, nashrlar soni, nashr faoliyati yillari, tadqiqot yo'nalishlari, asosiy hammualliflarga havolalar, muallifning nashrlari bo'yicha umumiy iqtiboslar soni, keltirilgan manbalarning umumiy soni kabi ma'lumotlarni taqdim etadi. muallif tomonidan, muallifning Hirsh indeksi va boshqalar. Ma'lumotlar bazasi foydalanuvchilarga qidiruv so'rovlarini yaratish va muallif profilidagi o'zgarishlar uchun elektron pochta yoki RSS bildirishnomalarini o'rnatish uchun noyob muallif identifikatorlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Mualliflarni qidirish va ularning profillarini cheklangan ko'rish imkoniyatlari Scopus Author Preview yordamida Scopus ma'lumotlar bazasiga obuna bo'lmasdan mavjud.

Ma'lumotlar boasida ilmiy jurnallar, konferensiya materiallari va qator seriyali kitobiy nashrlar, shuningdek professional jurnallar qayd qilingan. Scopus H4H yaratuvchisi va egasi Elsevier nashriyotchilik korporatsiyasi hisoblanadi.

Ma'lumotlar bazasiga web interfeysi orqali a'zo bo'lish yo'li bilan bog'lanish mumkin bo'ladi. Qidiruv apparati web-saxifa va patent ma'lumotlar bazasini qidirish uchun Scirus qidiruv tizimi bilan birlashtirilgan. [https://uz.wikial.top/wiki/Scopus#cite\\_note-6](https://uz.wikial.top/wiki/Scopus#cite_note-6)

**SCOPUS** – ko'p fanli bibliografik va referativ ma'lumotlar bazasi va ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolaga iqtiboslikni kuzatish uchun uskuna hisoblanadi. Scopus yuqorida aytilganidek dunyoning 5 mingdan ortiq ilmiy nashriyotlaridagi 18 mingdan ortiq nashrlarni qamrab oladi. U o'z ichiga AQSh, Yevropa va Yaponiyaning 13 millionga yaqin patentlarni qamrab oladi. *Shuningdek, «Elsevier» nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan va qollab quvvatlanadigan konferensiya materiallarini ushbu bazaga birlashtiradi.*

Scopus - dunyodagi eng nufuzli bibliografik va mavhum ilmiy materiallar to'plamlaridan biri. Scopus iqtiboslar ma'lumotlar bazasi o'zining eng kattasidir. U aniq fanlardan gumanitar fanlarga mutlaqo boshqacha ilmiy yo'nalishga ega bo'lgan jurnallarni indekslaydi.

### Jurnallar ro'yxatini shakllantirish

Scopusda indekslangan jurnallar jiddiy tanlov jarayonidan o'tgandan so'ng rasmiy veb-saytda mavjud bo'ladi. Elsevier mutaxassislari bu jarayon uchun javobgardir. Elsevier ilmiy axborot mahsulotlari va xizmatlari bo'yicha jahon etakchisi va dunyodagi eng yirik to'rtta nashriyotdan biri hisoblanadi.

Scopus ma'lumotlar bazasining mazmunini nazorat qiluvchi bunday vakolat, obro'li olimlarni sharhlovchi sifatida jalb qiladi, bu nashr etilgan maqolalarning yuqori darajasini va shuning uchun nashrlarning tegishli darajasini belgilaydi.

Ilmiy nashrga material tayyorlab qo'yganlarga ishingiz halol nashrda chiqarilishiga ishonch hosil qilish uchun Scopus 2021-2022 jurnallari ro'yxatiga e'tibor qaratish yoki joriy jurnallardan maqolangizga mos jurnalni tanlash tavsiya etilgan ma'lumotlar bazasi tarkibi.


1996 yildan keyin nashr etilgan ilmiy manbalar maqola bibliografiyalari ro'yxati bilan birga Scopus ma'lumotlar bazasida indekslanadi. Ma'lumotlar bazasidagi iqtiboslar ushbu ro'yxatlar mazmunini avtomatlashtirilgan tahlil qilish orqali hisoblanadi. Shunday qilib, Scopus barcha indekslangan resurslarga havolalar sonini hisoblaydi, lekin faqat 1996 yildan beri nashr etilgan manbalarda.

Web of Knowledge ma'lumotlar bazasidan farqli o'laroq, Scopus ta'sir omillarini tushunchasidan foydalanmaydi, ammo Hirsch indeksi juda keng qo'llaniladi (<https://www.journals.elsevier.com/european-economic-review> (2.1-rasm)).




2.1-rasm. european-economic-review jurnali

<https://www.journals.elsevier.com/european-journal-of-operational-research> (2.2-rasm).



2.2-rasm. Yevropa jurnali.

<https://www.journals.elsevier.com/ifac-journal-of-systems-and-control> (2.3-rasm).



2.3-rasm. ifac-journal-of-systems-and-control jurnali.

H(xirsh) indeksi - bu nima, u qanday hisoblanadi va uni turli xil iqtibos asoslariga ko'ra aniqlash mumkin?

Xirsh - bu zaruriy shart, chunki u olimning ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olinishini aks ettiradi.

Xirsh indeksi (oddiy h-indeks yoki oddiygina "Hirsh") 2005 yilda amerikalik professor Xorxe Xirsh tomonidan olimning nashr etish samaradorligini aniqlash uchun indeks sifatida taklif qilingan.

Ushbu indeks bir vaqtning o'zida ma'lum bir olim tomonidan chop etilgan maqolalar sonini ham, ushbu maqolalarga iqtiboslar sonini ham birlashtiradi va yaqinda mashhur ilmiyometrik ko'rsatkichga aylandi, bu ma'lumotlar grantlar va mukofotlarga ariza topshirishda, tanlovlardan o'tishda so'raladi va hisobga olinadi, ilmiy lavozimlar uchun va h.k.

#### Xirsh indeksi qanday hisoblanadi?

h-indeks kamida h maqolaga kamida h marta havola qilinganligini aks ettiruvchi raqamli ko'rsatkichdir. Ushbu ta'rifni misol bilan tushunish osonroq.

Faraz qilaylik, yosh fan nomzodi Mamajanov 6 ta maqola chop etdi, ulardan birinchisiga 10 marta, ikkinchisiga 7 ta, uchinchi va to'rtinchisiga 2 tadan, beshinchisiga 1 tadan, oltinchisiga esa haligacha iqtibos keltirilmagan (1-jadval).

1-jadval.

Maqola raqami nashr qilish tartibida	Ushbu maqolaning jamlanmalari soni
1	10
2	7
3	2
4	2
5	1
6	0

Bunday tadqiqotchining h indeksi 2 ga teng bo'ladi, chunki kamida 2 ta maqola kamida 2 marta keltirilgan.

Bundan tashqari yana Mamajanovning uchinchi yoki to'rtinchi maqolasidagi iqtibos keltirishi bilan uning h indeksi 3 ga teng bo'ladi, chunki u holda 3 ta maqolada ular haqida 3 yoki undan ko'p eslatma bo'ladi. Juda ko'p nashrlar bilan ma'lum bir olim 6 dan ortiq h indeksiga ega bo'lishi mumkin emas va agar uning har bir maqolasiga kamida 6 marta iqtibos keltirilsa, maksimal qiymat paydo bo'ladi.

Indeks nafaqat alohida ilmiy xodim, balki bir guruh olimlar (institut universitet), shuningdek, butun mamlakat faoliyatini baholash uchun har qo'llanilishi mumkin. Xirsh indeksi qanchalik yuqori bo'lsa, olim (tadqiqotchi) shunchalik yuqori malakali hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotchining xalqaro ilmiy jurnallarda nashrlari qanchalik ko'p bo'lsa, bu ko'rsatkich shunchalik yuqori ekanligi ma'lum. Biroq, bu mutlaqo to'g'ri emas, yuqori Hirsh indeksiga ega bo'lish uchun juda ko'p nashrlarga ega bo'lish etarli emas.

Grantga ariza berishda, ilmiy tanlovlarda ishtirok etish uchun hujjatlar va hatto yangi lavozim yoki unvonni olishda ham nomzodlarni tanlash bir qator parametrlar, shu jumladan Hirsh indeksi bo'yicha amalga oshiriladi.

#### Hirsch indekni aniqlashning 4 usuli.

Avvalo, siz o'zingizning h-indeksingizni qaysi ma'lumotlar bazasida aniqlamoqchi ekanligingizni hal qilishingiz kerak, chunki har bir ma'lumotlar bazasi o'z ichiga olgan boshqa maqolalarga havolalar ro'yxati asosida har bir maqolangizning iqtiboslarini hisoblab chiqadi. Bu shuningdek, turli xil ma'lumotlar bazalaridagi bu ko'rsatkich bir olim uchun har xil bo'lishini anglatadi.

Eng keng tarqalgan va umume'tirof etilgan (jumladan, Rossiya Ilmiy Jang'armasi (RNF) va Rossiya tadqiqotlar jamg'armasi (RFBR) tomonidan ko'rib chiqilganlar) bu Rossiya fan iqtibos indeksi (elibrary.ru platformasida) (RSCI, Scopus, Web of Science va Google Scholar).

Odatda, rus olimi uchun rus tilidagi nashrlar soni (RSCI-ga kiritilgan va Web of Science va Scopus-ga kiritilmagan) xorijiy nashrlar sonidan oshib ketadi va RSCI-dagi Xirsh indeksi deyarli har doim yuqori bo'lib chiqadi.

#### Scopus tomonidan h-indeksning ta'rifi (scopus.com).

Scopus tomonidan Hirsch indeksini aniqlash uchun siz quyidagilarni bajarishingiz kerak:

1. scopus.com saytiga o'ting.
2. Sahifaning yuqori o'ng qismida "Mualliflarni qidirish" ni tanlang (bu ro'yxatdan o'tmasdan amalga oshirilishi mumkin).
3. Muallifning familiyasi va ismini tegishli maydonlarga kiriting va "Izlash" tugmasini bosing. E'tibor bering, Scopus ma'lumotlar bazasida nuqtalar ism va otasining ismidan keyin qo'yilishi kerak.

Web of Science (webofknowledge.com) tomonidan Hirsh indeksini aniqlash.

Web of Science uchun Hirsch indeksini aniqlash uchun siz quyidagilarni bajarishingiz kerak:

1. web of knowledge.com saytiga o'ting (faqat ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar qidirishi mumkin).

2. Ko'rsatilgan qidiruv maydoniga muallif familiyasi va bosh harflarining barcha mumkin bo'lgan ismlarini lotin tilida yozing (masalan, familiyadagi "x" harfi "h" yoki "kh" va hokazo sifatida yozilishi mumkin. Vikipediya rus harflarining lotin jadvaliga mumkin bo'lgan transliteratsiyalarining to'liq ro'yxatini ko'ring).

Shuni yodda tutish kerakki, ba'zi xorijiy nashrlarda muallifning otasining ismi yozilmagan, shuning uchun biz nafaqat "Mamajanov RY" (bu ma'lumotlar bazasida ism va otasining ismi bo'sh joy qoldirmasdan kiritilgan), balki "Mamajanov R" ni ham kiritdik. Muallifning to'liq ismining barcha mumkin bo'lgan imlolari "OR" operatori (rus tiliga tarjima qilingan - "YOKI") bilan ajratilgan bir qatorda joylashgan.

3. Web of Science ma'lumotlar bazasi ma'lum bir muallifning profiliga o'tishga va uning ko'rsatkichlari bilan tanishishga imkon bermaydigan barcha mualliflarning familiyasi va bosh harflari bilan maqolalarini ko'rsatadi. Ushbu asosiy qidiruv natijasida u 1750 ta nashrlar ro'yxatini qaytardi, ularning hammasi ham kerakli muallifga tegishli emas.

Natijalarni aniqlashtirish uchun siz ko'rsatilgan nashrlar ro'yxatining chap tomonidagi tegishli maydonlardan foydalanishingiz mumkin, turli parametrlarni (mamlakat, tashkilot va h.k.) tanlab, "yaxshilash" tugmasini bosing, agar biz faqat tanlangan elementlarni saqlamoqchi bo'lsak yoki "chiqib qo'yish" "Agar biz ulardan ba'zilarini olib tashlashni xohlasak.

4. Mamajanov R. uchun tashkilotning spetsifikatsiyasi ro'yxatni 552 ta nashrga toraytiradi, ammo ular o'sha institutda ishlaydigan Mamajanov R.M.ning maqolalarini o'z ichiga oladi. Agar qidiruvda faqat Mamajanov R.Y. ko'rsatilgan bo'lsa, unda nashrlar ro'yxati 125 moddadan iborat, ammo bu ro'yxat to'liq emas, chunki Mamajanov R. muallifligidagi maqolalar bo'lgan, bu erda notanish odamlarga, Mamajanov R.M. yoki Mamajanov R.Y. ular tegishli.

H-indeksini ko'rish uchun siz "iqtiboslar hisobotini yaratish" bo'yicha maqolalar ro'yxatining o'ng tomonini bosishingiz kerak, ro'yxatda ko'rsatilgan nashrlarning h-indeksi 27 ekanligini ko'rish mumkin.

5. Agar siz Mamajanov R. muallifligidagi qaysi maqolalar Mamajanov R.Y.ga tegishli ekanligini bilsangiz, natijalarni ma'lum bir otasining ismiga so'nggi toraytirishni o'tkazib yuborishingiz mumkin va 552 ta nashrlar ro'yxatidan ushbu muallifga tegishli maqolalarni qo'lda tanlab, ularni ro'yxatga qo'shishingiz mumkin. Belgilangan nashrlar ro'yxati va belgilangan nashrlar ro'yxatiga o'ting.

Google Scholar bo'yicha Hirsh indeksini aniqlash (scholar.google.ru)

Agar muallif Google Scholar-da mustaqil ravishda profil ochmagan bo'lsa, uning Hirsh indeksini bilib bo'lmaydi. Agar muallif shunday profilga ega bo'lsa, bir ko'rsatkichlarni ko'ramiz va buning uchun siz quyidagilarni qilishingiz kerak:

1. scholar.google.ru saytiga o'ting.
2. Qidiruv satriga familiya va bosh harflarni kiriting (rus yoki ingliz tilida) va Qidirish" tugmasini bosing. Agar sizda hali o'z profilingiz bo'lmasa, uni "Mening profilim" havolasidan foydalanib yaratishingiz mumkin.

Qidiruv barcha topilgan ishlarning ro'yxatini ko'rsatadi. Tizimda ro'yxatdan o'tgan mualliflarning ismlari havolalar ko'rinishida bo'ladi, uni bosish orqali siz darhol muallifning profiliga o'tishingiz mumkin. Agar bizning holatimizda bo'lgan kabi, havola bo'lmasa, bu muallif tizimda ro'yxatdan o'tmagan:

### Hirsh indeksini hisoblash uchun nima asoslanadi?

Biz Hirsch indeksini aniqlaydigan 4 ta iqtibos asosini tahlil qildik. Xo'sh, ularning qaysi biri Hirsh indeksini hisoblash uchun ishlatilishi kerak? Bu erda bitta javob yo'q, chunki bu asoslar har xil va o'zlarining afzalliklari va kamchiliklariga ega.

RSCI ma'lumotlar bazasi rusiyzabon olim uchun juda qulay va ma'lumotlar bazasi tushunarli. Har kim unga saytda ro'yxatdan o'tmasdan ham kirishi mumkin, unda tizimning ochiqligi.

Google Scholar ma'lumotlar bazasi ochiq tizim bo'lib, muallif profilida faqat bitta ma'lumotlar bazasi ichida emas, balki barcha ochiq manbalardan hisoblangan h-indeks ko'rsatiladi. Muhim kamchilik shundaki, Google Scholar Web of Science kabi yopiq ma'lumotlar bazalaridagi maqolalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi.

Google kompaniyasiga asos solinganiga 19 yil bo'ldi. Texnologiyalar olamida bu anchagina keksa yosh hisoblanadi. Shu munosabat bilan Recode.net portali jahonning eng asosiy qidiruv tizimiga doir 19 ta qiziqarli ma'lumotni to'pladi.

1. Larri Peyj va Sergey Brin 1998 yilda Google firmasiga asos solishdi. Kompaniya o'sha yili 4 sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ammo 2006 yildan e'tiboran 27 sentabrda tashkil etilgan kunini nishonlaydi.

2. Ilk dudl Larri Peyj va Sergey Brin tomonidan 1998 yilgi Burning Man festivalida yaratilgan. Bu ularning server ishlamay qolsa, ish joyida emasliklarini anglatuvchi o'ziga xos xabar edi.

3. Bugungi kunda Google kompaniyasida 72 mingdan ortiq kishi ishlaydi. Google Scholar-ilm-fan, maorif, referat, diplom, kurs, doktorlik ishlari tog'risidagi maqolalarni topishga yordam beradi.

4. Google raqamli va mobil reklama bozorida yetakchilik qiladi. Tahlilchilarning baholariga ko'ra, 2017 yili mobil reklamadan tushadigan daromad 50 mlrd dollardan ortadi. Bu Google kompaniyasining raqamli reklamadan ko'radigan daromadining 67 foizidir.

5. Google klaviaturada harflarning ko'p bosilib ketilishidan hosil bo'ladigan domenlarga ega: Google.com, Gogle.com, Googlr.com va boshqalarga ega. Google korporatsiyasiga shuningdek, 466453.com ham tegishlidir. Bu raqamlar telefon klaviaturasida g o o g l e harflaridir.

6. Statistika ko'ra, 2016 yil oktabrda Google'ning jahon qidiruv tizimidagi ulushi 90,3 foizga yetgan. 2017 yil iyulda bu raqam 86,8 foizga tushdi.

7. Google tarkibida hamon oq tanli va osiyoliklar ko'pchilikni tashkil etadi. Recode ma'lumotlariga ko'ra, Google'ning oq tanli xodimlari soni bu yil 59 foizdan 56 foizga tushgan. Osiyolik ishchilar soni 32 foizdan 35 foizga oshgan.

8. Google soni «gugol» so'zidan olingan bo'lib, 100 nolli raqamni anglatadi.

9. Avvalroq, Google mahalliy yangiliklarni avtomatlashtirish loyihasini moliyalashtirishi xabar qilingan edi.

10. Google.com 1998 yili 2 dekabrda mana shunday ko'rinishda edi.

11. Har yilgi may oyida bo'lib o'tadigan Google I/O ishlab chiqaruvchilar konferensiyasida kompaniyaning e'lon qilishicha, 2 mlrd sahifa uning AMP formatiga murojaat qilmoqda. U kontentni yaxshiroq keshlash imkonini beradi. Bu bilan mobil sahifalarni yuklash tezligi oshadi. Ayni vaqtda shu formatda 900 ming domen bor.

12. Google ma'lumotlariga binoan, Google Search indeksida 100 mlrdlab veb-sahifalar bor. Ularning hajmi 100 ming Gbdan ortiqdir.

13. «Asosiysi — foydalanuvchiga diqqat qaratish, qolgani moslashadi» —bu Google kompaniyasining bosh falsafasidir.

14. 2000 yil 1 aprel kuni Google foydalanuvchilari bilan hazillashib, hazil kunini nishonlay boshladi. Uning dastlabki hazili «foydalanuvchilar fikrini o'qiy olishi» aytilgan MentalPlex dasturidir.


15. Yaqinida Google tenghuquqlilik bo'yicha yangi vitse-prezidentni ishga qabul qilishini e'lon qildi.

16. Google Syuzan Vojitski garajida ishga tushirilgan, endilikda u YouTube bosh direktori lavozimini egallagan.

17. Google AQShdagi eng yaxshi 10 ta mobil ilovadan 5 tasiga egalik qiladi: YouTube, Google Play, Google Maps, Gmail va Google Search.

18. Google 2006 yili o'sha vaqtdagi yirik mablag' 1,65 mlrd dollar evaziga YouTube saytini xarid qildi.

19. Google sun'iy aql ishlanmalari bo'limi boshlig'ining fikricha, insoniyat robotlar Yerni egallab olishidan xavotirlanishi kerak.



Top 10. Mobile Apps by Penetration of App Audience  
Source: comScore Mobile Metrix, U.S., Age 18+, June 2017.

Bo'limlar:

- Kutubxonalarga yordam
- Nashriyotlarga ko'maklashish.

Google Scholar

Ushbu sahifa hozircha bo'sh.

Sizga yangi xabar keldi (oxirgi o'zgarish).

Google Scholar - ilmiy ma'lumotlar bazasi bo'lib, dunyodagi eng yirik ma'lumotlar bazasi bo'lib, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarning kuzatish uchun vosita. Indekslar 24 ming [1] texnika, tibbiyot va gumanitar fanlar bo'yicha ilmiy nashrlar nomlari, 5 ming nashriyot [2]. Ma'lumotlar bazasi ilmiy jurnallarni, konferentsiya materiallarini va seriyali kitoblarni, shuningdek, "professional" jurnallarni (Trade Journals) indekslaydi. Scopus ishlab chiqilgan va Elsevier nashriyot korporatsiyasiga tegishli. Ma'lumotlar bazasi vebinterfeys orqali obuna asosida mavjud. Qidiruv tizimi Scirus veb-qidiruv tizimi va patent ma'lumotlar bazasi bilan birlashtirilgan.

Bo'limlar:

- Kutubxonalarga yordam
- Nashriyotlarga ko'maklashish.

Hozirda ma'lumotlar bazasi bo'sh.

Havolalar: [Ushbu sahifa hozircha bo'sh.](#)

## 2.1. Umumiy jurnallarda chop etilgan maqolalar uchun Web of Science, Scopus va Google Scholar-da iqtiboslarni solishtirish

**Maqolaning mavzu va predmetlar bo'yicha qamrov doirasi.** "Scopus" yoki "Scopus" (rasmiy nomining so'nggi versiyasi: SciVerse Scopus) - bibliografik va mavhum ma'lumotlar bazasi va ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarning iqtiboslarini kuzatish uchun vosita. Indekslar 24 ming [1] texnika, tibbiyot va gumanitar fanlar bo'yicha ilmiy nashrlar nomlari, 5 ming nashriyot [2]. Ma'lumotlar bazasi ilmiy jurnallarni, konferentsiya materiallarini va seriyali kitoblarni, shuningdek, "professional" jurnallarni (Trade Journals) indekslaydi. Scopus ishlab chiqilgan va Elsevier nashriyot korporatsiyasiga tegishli. Ma'lumotlar bazasi vebinterfeys orqali obuna asosida mavjud. Qidiruv tizimi Scirus veb-qidiruv tizimi va patent ma'lumotlar bazasi bilan birlashtirilgan.

